$$SO_2 = \frac{V_{SO_2}}{V_{q,g}} \cdot 100 = \frac{0,0187 \cdot 0,375 S'_{uch}}{V_{q,g}} \cdot 100 = \frac{0,0187 \cdot 0,375 \cdot 3,2}{7,14} \cdot 100 = 0,315\%.$$

**Javob:** CO<sub>2</sub> = 16,5 %; SO<sub>2</sub> = 0,315 %.

**3.40.-masala.** C = 45,4%; H = 3,5%; S'<sub>uch</sub> = 1,3%; N = 0,9%; O = 8,9%; A = 27,0%; W = 13,0% tarkibli 1 kg G markali Tikbul ko'mirini to'liq yonishida 3 atomli gaz va ulardagi SO<sub>2</sub> va SO<sub>2</sub> nigng tarkibini aniqlang. Tutun gazlari uchun

$RO_{\text{2}}$  = 18,7% ni tashkil etadi.

**Javob:**  $V_{\text{H}_2\text{O}_2} = 0,86 \text{ m}^3/\text{kg}$ ;  $\text{SO}_2 = 18,5\%$ ,  $\text{SO}_3 = 0,2\%$ .

**3.41.-masala.**  $C^{\text{I}}=24,7\%$ ;  $N^{\text{I}}=2,6\%$ ;  $S_{\text{uch}}^{\text{I}}=0,1\%$ ;  $N^{\text{I}}=1,1\%$ ;  $O^{\text{I}}=15,2\%$ ;  $A^{\text{I}}=6,3\%$ ;  $W^{\text{I}}=50,0\%$  tarkibli 1000 kg frezer torfi yonishida ajralgan quruq tutun gazlarining hajmini aniqlang. Tutun gazlarining to‘liq yonishida  $RO_2=15,0\%$  va o‘txonadagi havoning ortiqchalik koeffitsienti  $\alpha_0=1,3$  ni tashkil etadi.

**Javob:**  $V_{\text{c,g}} = 3066 \text{ m}^3$ .

**3.42.-masala. O‘txonada**  $C^{\text{I}}=55,2\%$ ;  $H^{\text{I}}=3,8\%$ ;  $S_{\text{uch}}^{\text{I}}=3,2\%$ ;  $N^{\text{I}}=1,0\%$ ;  $O^{\text{I}}=5,8\%$ ;  $A^{\text{I}}=23,0\%$ ;  $W^{\text{I}}=8,0\%$  tarkibli  $5 \cdot 10^3 \text{ kg/s}$  Donetsk ko‘miri yoqiladi. Yoqilg’ini to‘liq yonishida tutun gazlarida  $RO_2$  16 dan 14% ga kamayishi ma’lum bo‘lsa, o‘choqqa beriladigan havo hajmi qanchaga ortadi.

**Javob:**  $V_B = 5949 \text{ m}^3/\text{s}$ .

**3.43.-masala.** Qozon o‘chog’ida  $C^{\text{I}}=84,65\%$ ;  $H^{\text{I}}=11,7\%$ ;  $S_{\text{uch}}^{\text{I}}=0,3\%$ ;  $O^{\text{I}}=0,3\%$ ;  $A^{\text{I}}=0,05\%$ ;  $W^{\text{I}}=3,0\%$  tarkibli  $2 \cdot 10^3 \text{ kg/s}$  kam oltingugurtli mazut yoqiladi. Yoqilg’ini to‘liq yonishida tutun gazlarida  $RO_2$  15 % dan 12 % ga kamayishi ma’lum bo‘lsa, o‘choqqa beriladigan havo hajmi qanchaga ortadi.

**Javob:**  $V_h = 6666 \text{ m}^3/\text{s}$ .

**3.44.-masala.** Qozon o‘chog’ida sinov vaqtida  $C^{\text{I}}=58,7\%$ ;  $H^{\text{I}}=4,2\%$ ;  $S_{\text{uch}}^{\text{I}}=0,3\%$ ;  $N^{\text{I}}=1,9\%$ ;  $O^{\text{I}}=9,7\%$ ;  $A^{\text{I}}=13,2\%$ ;  $W^{\text{I}}=12,0\%$  tarkibli  $3 \cdot 10^3 \text{ kg/s}$  D markali Kuznetsk ko‘miri yoqilgan. Sinovning birinchi yarmida yoqilg’ini to‘liq yonishida mahsulotlarning  $RO_2 = 18\%$  va va ikkinchi yarmida 15 % ga kamaydi. Sinovning birinchi va ikkinchi yarmida oralig’ida O‘txonaqa qancha havo hajmi berilganini aniqlang.

**Javob:**  $V_h = 4650 \text{ m}^3/\text{s}$ .

**3.45.-masala.**  $C^{\text{I}}=20,6\%$ ;  $H^{\text{I}}=2,7\%$ ;  $S_{\text{uch}}^{\text{I}}=1,7\%$ ;  $N^{\text{I}}=0,1\%$ ;  $O^{\text{I}}=2,8\%$ ;  $A^{\text{I}}=46,0\%$ ;  $W^{\text{I}}=11,5\%$ ,  $(\text{SO}_2)S_{\text{I}}^{\text{I}} = 16,4\%$  tarkibli 1 kg Sankt Peterburg slanetsini to‘liq yonishida ajralgan mahsulotlarning hajmi aniqlansin. O‘txonadagi havoning

ortiqchalik koeffitsienti  $\alpha_o = 1,3$ .

**Javob:**  $V_g = 2,96 \text{ m}^3/\text{kg}$ .

**3.46.-masala.** Tutun gazlari  $RO_2 = 18\%$  ni tashkil etganda  $C=54,7\%$ ;  $H=3,3\%$ ;  $S_{uch}^i=0,8\%$ ;  $N=0,8\%$ ;  $O=4,8\%$ ;  $A=27,6\%$ ;  $W=8,0\%$  tarkibli  $2 \cdot 10^3 \text{ kg/s}$  K markali Qarag'anda ko'mirini to'liq yonishida ajralgan mahsulotlarning hajmi aniqlansin.

**Javob:**  $V_g = 12,560 \text{ m}^3/\text{s}$ .

**3.47.-masala.**  $C=63,8\%$ ;  $H=1,2\%$ ;  $S_{uch}^i=1,7\%$ ;  $N=0,6\%$ ;  $O=1,3\%$ ;  $A=22,9\%$ ;  $W=8,5\%$  tarkibli A markali Donetsk ko'mirini to'liq yonishida mahsulotlardagi 3 atomli gazlarning maksimal tarkibi aniqlansin.

**Javob:**  $RO_2^{max} = 20,2\%$ .

**3.48.-masala.** Qozon o'chog'ida  $C_i^i = 49,3\%$ ;  $H_i^i = 3,6\%$ ;  $(S_{uch}^i)_1 = 3,0\%$ ;  $N_i^i = 1,0\%$ ;  $O_i^i = 8,3\%$ ;  $A_i^i = 21,8\%$ ;  $W_i^i = 13,0\%$  tarkibli  $2 \cdot 10^3 \text{ kg/s}$  Donetsk ko'miri va Donetsk G markali ko'mirning tarkibidagi:  $C_2^i = 55,2\%$ ;  $H_2^i = 3,8\%$ ;  $(S_i^i)=3,2\%$ ;  $N_2^i = 1,0\%$ ;  $O_2^i = 5,8\%$ ;  $A_2^i = 23\%$ ;  $W_2^i = 8\%$  tarkibli  $3 \cdot 10^3 \text{ kg/s}$  D markali Donetsk ko'mirlari aralashmasi yoqiladi. Agar O'txonadagi havoning ortiqchalik koeffitsienti  $\alpha_o = 1,3$  bo'lsa, aralashmani to'liq yonishida ajralgan gaz hajmini aniqlang.

**Javob:**  $V_g = 37,480 \text{ m}^3/\text{s}$ .

**3.49.-masala.**  $SO_2 = 0,1\%$ ;  $SN_4 = 85,8\%$ ;  $S_2N_6 = 0,2\%$ ;  $S_3N_8 = 0,1\%$ ;  $C_4H_{10} = 0,1\%$ ;  $N_2 = 13,7\%$  tarkibli  $1000 \text{ m}^3/\text{s}$  Radchenkovsk tabiiy gazini to'liq yonishida ajralgan gaz hajmi aniqlansin. O'txonadagi havoning ortiqchalik koeffitsienti  $\alpha_o = 1,1$ .

**Javob:**  $V_g = 10230 \text{ m}^3/\text{s}$ ,

**3.50.-masala.** Qozon o'chog'ida  $C=35,7\%$ ;  $H=2,9\%$ ;  $S_{uch}^i=0,3\%$ ;  $N=0,7\%$ ;  $O=12,1\%$ ;  $A=24,3\%$ ;  $W=24,0\%$  tarkibli 1 kg BZ markali Artemov ko'miri yoqiladi.  $RO_2 = 18\%$  bo'lsa, yonish mahsulotlari hajmi va ulardagagi kislorod  $O_2$  miqdorini aniqlang.

**Javob:**  $V_g = 4,16 \text{ m}^3/\text{kg}$ ;  $O_2 = 1,3 \%$ .

**3.51.-masala.** Qozon o'chog'ida  $C^i=50,1\%$ ;  $H^i=4,0\%$ ;  $S_{uch}^i=0,1\%$ ;  $N^i=0,7\%$ ;  $O^i=12,2\%$ ;  $A^i=11,9\%$ ;  $W^i=21,0\%$  tarkibli BZ markali 1 kg Anadir ko'miri yoqiladi. Agar  $RO_2 = 16\%$  bo'lsa, yoqilg'i to'liq yonishida havoning ortiqchalik koeffitsientini aniqlang.

**Javob:**  $\alpha_{o^i} = 1,2$ .

**3.52.-masala.** Qozon o'chog'ida  $C^i=62,7\%$ ;  $H^i=3,1\%$ ;  $S_{uch}^i=2,8\%$ ;  $N^i=0,9\%$ ;  $O^i=1,7\%$ ;  $A^i=23,8\%$ ;  $W^i=5,0\%$  tarkibli T markali Donetsk ko'miri yoqiladi. Agar  $RO_2 = 15\%$  bo'lsa, azot  $N_2$  ning miqdori va yoqilg'i to'liq yonishida havoning ortiqchalik koeffitsientini aniqlang.

**Javob:**  $V_{N_2} = 5,09 \text{ m}^3/\text{kg}$ ;  $\alpha_{o^i} = 1,26$ .

**3.53.-masala.** Agar yonish mahsulotlari uchun  $RO_2 = 16,0\%$  va  $\alpha_2 = 4,0\%$  bo'lsa,  $SO_2 = 1,2\%$ ;  $SN_4 = 91,9\%$ ;  $S_2N_6 = 2,1\%$ ;  $S_3N_8 = 1,3\%$ ;  $S_4N_{10} = 0,4\%$ ;  $S_5N_{12} = 0,1\%$ ;  $N_2 = 3,0\%$  tarkibli Saratov tabiiy gazini to'liq yonishida quruq gazlarning hajmi va havoning ortiqchalik koeffitsientini aniqlang.

**Javob:**  $V_{s,g} = 6,44 \text{ m}^3/\text{m}^3$ ;  $\alpha_{o^i} = 1,23$ .

**3.54.-masala.** Qozon o'chog'ida  $C^i=30,4\%$ ;  $H^i=1,7\%$ ;  $S_{uch}^i=0,3\%$ ;  $N^i=0,5\%$ ;  $O^i=12,2\%$ ;  $A^i=7,9\%$ ;  $W^i=47,0\%$  tarkibli 1 kg B1 markali Raychixin ko'miri yoqiladi. Agar  $RO_2 = 16,0\%$  bo'lsa, kislorod  $O_2$  miqdorini va havoning ortiqchalik koeffitsientini aniqlang.

**Javob:**  $O_2 = 4,8\%$ ;  $\alpha_{o^i} = 1,3$ .

**3.55.-masala.**  $C^i=20,6\%$ ;  $H^i=2,7\%$ ;  $S_{uch}^i=1,7\%$ ;  $N^i=0,1\%$ ;  $O^i=2,8\%$ ;  $A^i=46,0\%$ ;  $W^i=11,5\%$ ;  $(CO_2)_k$  tarkibli 1 kg Sankt Peterburg slanetsini to'liq yonishida ajraladigan yonish mahsulotlarining massasi va kul kontsentratsiyasini aniqlang. O'txonada havoning ortiqchalik koeffitsienti  $\alpha_{o^i}=1,2$ .

**Yechish:** parchalanmagan karbonatlarni hisobga olgan holda yoqilg'idagi kulning hisobiy miqdorini (3.57) ifodadan aniqlaymiz:

$$A_k^i = A' + (1 - K) (SO_2)_k^i = 46,0 + (1 - 0,7) 16,4 = 50,9\%.$$

1 kg yoqilg'ini to'liq yonishi uchun havoning zarur nazariy hajmi (3.27) ifodadan topamiz:

$$V^o = 0,089C^i + 0,266N^i + 0,033 (S_{w,h}^i - O^i) = 0,089 \cdot 20,6 + 0,266 \cdot 2,7 + \\ + 0,033 (1,7 - 2,8) = 2,52 \text{ m}^3/\text{kg}.$$

Yonish mahsulotlari massasini (3.56) ifodadan aniqlaymiz:

$$M_{g,k} = 1 - 0,01 A_k^i + 1,306 \alpha_{vo} V^o + 0,01 ((SO_2)_k^i) = 1 - 0,01 \cdot 50,9 + \\ + 1,306 \cdot 1,2 \cdot 2,52 + 0,01 \cdot 16,4 \cdot 0,7 = 4,55 \text{ kg/kg}.$$

(3.58) ifodadan yonish mahsulotlarida kulining kontsentratsiyasini aniqlaymiz:

$$\mu_{a,1} = \frac{A^i a_{yu}}{M_{g,k}} = \frac{46 \cdot 0,98}{4,55 \cdot 100} = 0,0991$$

**Javob:**  $M_{g,k} = 55 \text{ kg/kg}$ ;  $\mu_{a,1} = 0,0991$ .

**3.56.-masala.** Agar yonish mahsulotlari olib ketadigan yoqilg'i kulining ulushi  $a_{yu} = 0,85$  bo'lsa,  $C^i = 54,7\%$ ;  $H^i = 3,3\%$ ;  $S_{w,h}^i = 0,8\%$ ;  $N^i = 0,8\%$ ;  $O^i = 4,8\%$ ;  $A^i = 27,6\%$ ;  $W^i = 8,0\%$  tarkibli 1 kg K markali Qarag' anda ko'mirini to'liq yonishida ajraladigan yonish mahsulotlarining massasi va kul kontsentratsiyasini aniqlang. O'txonadagi havoning ortiqchalik koefitsienti  $\alpha_o = 1,3$ .

**Javob:**  $M_g = 9,25 \text{ kg/kg}$ ;  $\mu_{kul} = 0,0253$ .

**3.57.-masala.** Agar quruq gazning zichligi  $\rho_{gt}^k = 0,728 \text{ kg/m}^3$  bo'lsa,  $SO_2 =$

0,2%;  $\text{SN}_4 = 98,2\%$ ;  $\text{S}_2\text{N}_6 = 0,4\%$ ;  $\text{S}_3\text{N}_8 = 0,1\%$ ;  $\text{S}_4\text{N}_{10} = 0,1\%$ ;  $\text{N}_2 = 1,0\%$  tarkibli Stavropol tabiiy gazini to‘liq yonishida ajraladigan yonish mahsulotlari massasini aniqlang. O‘txonadagi havoning ortiqchalik koeffitsienti  $\alpha_{o^*} = 1,15$ .

**Javob:**  $M_g = 15 \text{ kg/m}^3$ .

### 3.4. Yonish mahsulotlari va havo entalpiyasi

1 kg qattiq, suyuq yoki 1  $\text{m}^3$  gazsimon yoqilg‘ining yonish mahsulotlari entalpiyasi (kJ/kg,  $\text{kJ/m}^3$ )  $\alpha_{o^*} = 1$  dagi yonish mahsulotlari  $I_g^0$ , ( $\alpha_{yo} - 1$ ) da ortiqcha havo  $I_h^0$  va  $A_{pr\ oket} > 1,43 \text{ kg}\cdot\% \cdot 10^{-3}/\text{kJ}$  da kul  $I_3$  entalpiyalari yig‘indisidan aniqlanadi.

$$I_g = I_g^0 + (\alpha_{yo} - 1)I_h + I_k. \quad (3.60)$$

$\alpha_{o^*} = 1$  va gaz haroratida 9,  ${}^0\text{C}$  yonish mahsulotlari entalpiyasi (kJ/kg,  $\text{kJ/m}^3$ ) quyidagi ifodadan aniqlanadi:

$$I_g^0 = V_{\text{SO}_2}(c\vartheta)_{\text{CO}_2} + V_{\text{N}_2}^0(c\vartheta)_{\text{N}_2} + V_{\text{H}_2\text{O}}^0(c\vartheta)_{\text{H}_2\text{O}}, \quad (3.61)$$

bu yerda  $V_{\text{SO}_2}$ ,  $V_{\text{N}_2}^0$ ,  $V_{\text{H}_2\text{O}}^0$  - yoqilg‘i yonish mahsulotlarining nazariy hajmlari,  $\text{m}^3/\text{kg}$  ( $\text{m}^3/\text{m}^3$ );

$(s\vartheta)_{\text{SO}_2}$ ,  $(c\vartheta)_{\text{N}_2}$ ,  $(s\vartheta)_{\text{N}_2\text{O}}$  - uglekislota, azot va suv bug‘larining mos ravishda entalpiyalari,  $\text{kJ/m}^3$ .

$\alpha_{o^*t} = 1$  va gaz haroratida 9,  ${}^0\text{C}$  havoning entalpiyasi (kJ/kg,  $\text{kJ/m}^3$ ) quyidagi ifodadan aniqlanadi:

$$I_h^0 = V^0(c\vartheta)_v, \quad (3.62)$$

bu yerda  $V^0$  havoning nazariy hajmi,  $\text{m}^3/\text{kkg}$  ( $\text{m}^3/\text{m}^3$ );

$(c\vartheta)_n$  - havoning entalpiyasi,  $\text{kJ/m}^3$ .

Kulning entalpiyasi ( $\text{kJ/kg}$ ):

$$I_{kul} = \frac{A^i a_{ul}}{100} (c\vartheta)_3, \quad (3.63)$$

bu yerda  $a_{ul}$  yonish mahsulotlari olib ketadigan yoqilg'i kulining ulushi;


$(c\vartheta)_{kul}$  - kulning entalpiyasi,  $\text{kJ/kg}$ .

I-jadvalda yoqilg'ini to‘liq yonish mahsulotlari, havo va kulning entalpiyalari keltirilgan (Illovaga qaralsin).

Yonish mahsulotlari uchun  $I\vartheta$  - diagramma.  $I\vartheta$  – diagramma quyidagi tartibda quriladi: yoqilg'ining yonish haroratining bir necha qiymatlari  $\vartheta$  va ular uchun yonish mahsulotlari entalpiyalari hisoblanadi. Keyin harorat va entalpiya uchun koordinata to‘g’ri burchak tizimida masshtablar tanlanadi,  $I=f(\vartheta)$  nuqtalar bo‘yicha to‘g’ri chiziq o‘tkaziladi (3.1. - rasm).

$I\vartheta$  – diagramma bo‘yicha qozon o‘txonasidagi nazariy harorati topiladi.

$I, \text{kJ/kg}$



3.1. - rasm. Yonish mahsulotlari uchun  $I\theta$  – diagrammasi

**3.58.-masala.** Agar o'txonadan chiqishda gaz harorati  $\theta_g = 1100 \text{ } ^\circ\text{C}$ , yonish mahsulotlari olib ketadigan yoqilg'i kulining ulushi  $a_{ul} = 0,9$ , yonayotgan yoqilg'ining kulni olib ketish keltirilgan kattaligi  $A_{pr-un} = 4,6 \text{ kg} \cdot \% \times 10^{-3}/\text{kDj bo'lsa}$ ,  $C^i = 55,2\%$ ;  $H^i = 3,6\%$ ;  $S_{ach}^i = 1,0\%$ ;  $N^i = 1,0\%$ ;  $O^i = 5,2\%$ ;  $A^i = 25,6\%$ ;  $W^i = 8,4\%$  tarkibli 1 kg T markali Qarag'anda ko'mirini to'liq yonishida ajraladigan yonish mahsulotlarini o'txonadan chiqishdagi entalpiyasini aniqlang, o'txonadagi havoning ortiqchalik koeffitsienti  $\alpha_o = 1,2$ .

**Yechish:** Xavoning zarur nazariy hajmi (3.27) ifodadan aniqlanadi:

$$V^o = 0,089C^i + 0,266 + N^i + 0,033 \times (S_{ach}^i - O^i) = 0,089 \cdot 55,2 + 0,266 \cdot 3,6 + 0,033 (1,0 - 5,2) = 5,73 \text{ m}^3/\text{kg}.$$

3 atomli gazlarning hajmi (3.33)dan topiladi:

$$V_{\text{NO}_2} = 0,0187 (\text{C}^{\dagger} + 0,375 S_{\text{uch}}^{\dagger}) = 0,0187 (55,2 + 0,375 \cdot 1,0) = 1,04 \text{ m}^3/\text{kg}.$$

Azotning nazariy hajmi (3.32)dan aniqlanadi:

$$V_{\text{N}_2}^0 = 0,79V^0 + 0,8N^{\dagger}/100 = 0,79 \cdot 5,73 + 0,8 \cdot 1,0 / 100 = 4,53 \text{ m}^3/\text{kg}.$$

Suv bug'ining nazariy hajmi (3.35) dan topiladi:

$$\begin{aligned} V_{\text{N}_2\text{O}}^0 &= 0,0124 (9N^{\dagger} + W) + 0,0161V^0 = 0,0124 \times (9 \cdot 3,6 + 8,4) + \\ &+ 0,0161 \cdot 5,73 = 0,59 \text{ m}^3/\text{kg}. \end{aligned}$$

$\alpha_{o^{\circ}\text{t}} = 1$  va  $\vartheta_g = 1100 \text{ }^{\circ}\text{C}$  da yonish mahsulotlarining entalpiyasi (3.61) dan aniqlaymiz:

$$\begin{aligned} I_g^0 &= V_{\text{NO}_2} (s\vartheta)_{\text{SO}_2} + V_{\text{N}_2}^0 (s\vartheta)_{\text{N}_2} + V_{\text{N}_2\text{O}}^0 (s\vartheta)_{\text{N}_2\text{O}} = \\ &= 1,04 \cdot 2457 + 4,53 \cdot 1545 + 0,59 \cdot 1926 = 10690 \text{ kJ/kg}. \end{aligned}$$

$\vartheta_g = 1100 \text{ }^{\circ}\text{C}$  da  $(s\vartheta)_{\text{SO}_2}$ ,  $(s\vartheta)_{\text{N}_2}$  va  $(s\vartheta)_{\text{N}_2\text{O}}$  qiymatlari 1-jadvalda keltirilgan (Illovaga qaralsin).

$\vartheta_g = 1100 \text{ }^{\circ}\text{C}$ da 1 kg ko'mir uchun kul entalpiyasi (3.63)dan topiladi:

$$I_k = \frac{A' a_{vl}}{100} (c\vartheta)_k = \frac{25,6 \cdot 0,9}{100} 1096 = 252 \text{ kJ/kg}.$$

Gaz harorati  $\vartheta_g = 1100 \text{ }^{\circ}\text{C}$ da  $(s\vartheta)_k$  qiymati 1-jadvalda keltirilgan (Illovaga qaralsin).

$\alpha_{o^{\circ}\text{t}} = 1$  va gaz harorati  $\vartheta_g = 1100 \text{ }^{\circ}\text{C}$  da havo entalpiyasi (3.62) ifodadan aniqlanadi:

$$I_u^o = V^o(c\vartheta)_u = 5,73 \cdot 1595 = 9139 \text{ kJ/kg}.$$

Gaz harorati  $\vartheta_g = 1100 {}^0\text{Cda}$  ( $s\vartheta_h$ ) qiymati 1-jadvalda keltirilgan (Illovaga qaralsin).

$\vartheta_g = 1100 {}^0\text{Cda}$  1 kg ko'mir uchun yonish mahsulotlari entalpiyasi (3.60)dan topiladi:

$$I_g = I_g^0 + (\alpha_{yo} - 1) I_h^o + I_k = 10690 + (1,2 - 1) \times 9139 + 252 = 12770 \text{ kDj/kg}.$$

**Javob:**  $I_g = 12770 \text{ kJ/kg}$ .

**3.59.-masala.** O'txonadan chiqishda gaz harorati  $\vartheta_g = 1100 {}^0\text{Cbo}$ 'lsa,  $C^i=62,7\%$ ;  $H^i=3,1\%$ ;  $S_{uch}^i=2,8\%$ ;  $N^i=0,9\%$ ;  $O^i=1,7\%$ ;  $A^i=23,8\%$ ;  $W^i=5,0\%$  tarkibli 1 kg T markali Donetsk ko'mirini to'liq yonishida o'txonadan chiqishda yonish mahsulotlari entalpiyasi aniqlansin.

**Javob:**  $I_g^0 = 11 774 \text{ kJ/kg}$ .

**3.60.-masala.** Qozon o'txonasida  $C^i=63,8\%$ ;  $H^i=1,2\%$ ;  $S^i=1,7\%$ ;  $N^i=0,6\%$ ;  $O^i=1,3\%$ ;  $A^i=22,9\%$ ;  $W^i=8,5\%$  tarkibli 1 kg A markali Donetsk ko'miri yoqiladi. O'txonadan chiqishda gaz harorati  $\vartheta_g = 1000 {}^0\text{Cva}$  o'txonada havoning ortiqchalik koefitsienti  $\alpha_o = 1,3$  bulganda ko'mirning to'liq yonishida o'txonadan chiqishda ortiqcha havoning entalpiyasini aniqlang.

**Javob:**  $I_h = 2604 \text{ kJ/kg}$ .

**3.61.-masala.** Agar o'txonadan chiqishda gaz harorati  $\vartheta_g = 1000 {}^0\text{C}$  bo'lsa,  $\text{SO}_2 = 0,4\%$ ;  $\text{SN}_4 = 94,0\%$ ;  $\text{S}_2\text{N}_6 = 2,8\%$ ;  $\text{S}_3\text{N}_8 = 0,4\%$ ;  $\text{S}_4\text{N}_{10} = 0,3\%$ ;  $\text{S}_5\text{N}_{12} = 0,1\%$ ;  $\text{N}_2 = 2,0\%$  tarkibli  $1 \text{ m}^3$  Gazli tabiiy gazining to'liq yonishida ajraladigan yonish mahsulotlarining o'txonadan chiqishdagি entalpiyasini aniqlang. O'txonada havoning ortiqchalik koefitsienti  $\alpha_o = 1,1$ .

**Javob:**  $I_g = 18 034 \text{ kJ/m}^3$ .

**3.62.-masala.** Agar o'txonadan chiqishda gaz harorati  $9_g = 1000 \text{ C}$  bo'lsa,  $\text{SO}_2 = 0,1\%$ ;  $\text{SN}_4 = 92,8\%$ ;  $\text{S}_2\text{N}_6 = 3,9\%$ ;  $\text{S}_3\text{N}_8 = 1,0\%$ ;  $\text{S}_4\text{N}_{10} = 0,4\%$ ;  $\text{S}_5\text{N}_{12} = 0,3\%$ ;  $\text{N}_2 = 1,5\%$  tarkibli  $1 \text{ m}^3$  shebelin tabiiy gazining to'liq yonishida o'txonadan chiqishda ortiqcha havoning entalpiyasini aniqlang. O'txonada havoning ortiqchalik koeffitsienti  $\alpha_{o^*} = 1,1$ .

**Javob:**  $I_v = 1431 \text{ kJ/m}^3$ .

**3.63.-masala.** Agar o'txonadan chiqishda gaz harorati  $9_g = 1000 \text{ C}$  bo'lsa,  $C^i = 8,3\%$ ;  $H^i = 10,4\%$ ;  $S_i^i = 2,8\%$ ;  $O^i = 0,7\%$ ;  $A^i = 0,1\%$ ;  $W^i = 3,0\%$  tarkibli  $1 \text{ kg}$  yuqori oltingugurtli mazutni to'liq yonishida ajralgan yonish mahsulotlarining o'txonadan chiqishdagi entalpiyasini aniqlang. O'txonada havoning ortiqchalik koeffitsienti  $\alpha_{o^*} = 1,15$ .

**Javob:**  $I_g = 21\,377 \text{ kJ/m}^3$ .

**3.64.-masala.** Agar o'txonadan chiqishda gaz harorati  $9_g = 1100 \text{ }^\circ\text{C}$ , yonish mahsulotlari olib ketadigan yoqilg'i kulining ulushi  $a_{un} = 0,85$  va yoqilayotgan yoqilg'i kulining olib ketishini keltirilgan kattaligi  $A_{pr.un} = 3,72 \text{ kg} \cdot \% \times 10^{-3}/\text{kDj}$  bo'lsa,  $C^i = 55,2\%$ ;  $H^i = 3,8\%$ ;  $S_{uch}^i = 3,2\%$ ;  $N^i = 1,0\%$ ;  $O^i = 5,8\%$ ;  $A^i = 23,0\%$ ;  $W^i = 8,0\%$  tarkibli  $1 \text{ kg}$  G markali Donetsk ko'mirini to'liq yonishida o'txonadan chiqishda ortiqcha havo va kulning entalpiyasini aniqlang. O'txonada havoning ortiqchalik koeffitsienti  $\alpha_{o^*} = 1,3$ .

**Javob:**  $I_b = 2790 \text{ kJ/kg}$ ;  $I_z = 214 \text{ kJ/kg}$ .

**3.65.-masala.** Qozon o'txonasida  $C^i = 55,2\%$ ;  $H^i = 3,6\%$ ;  $S_{uch}^i = 1,0\%$ ;  $N^i = 1,0\%$ ;  $O^i = 5,2\%$ ;  $A^i = 25,6\%$ ;  $W^i = 8,4\%$  tarkibli  $1 \text{ kg}$  K markali Qarag'anda ko'miri yoqiladi. Yoqilg'inini yonish issiqligi  $600 \dots 2000 \text{ }^\circ\text{C}$  oralig'ida yonish mahsulotlari uchun  $T\!/\!G$ -diagrammasi chizilsin. O'txonada havoning ortiqchalik koeffitsienti  $\alpha_{o^*} = 1,35$ .

Yechish: Nazariy zarur havoning hajmini (3.27) ) ifodadan aniqlaymiz:

$$V^o = 0,089C^i + 0,266N^i + 0,033(S_{uch}^i - O^i) = 0,089 \times 55,2 + 0,266 \cdot 3,6 +$$

$$+ 0,033 (0,1 - 5,2) = 5,73 \text{ m}^3/\text{kg}.$$

3 atomli gazlarning hajmini (3.33) ifodadan topamiz:

$$V_{RO_2} = 0,0187 (C^i + 0,375 S^i) = 0,0187 (55,2 + 0,375 \cdot 1,0) = 1,04 \text{ m}^3/\text{kg}.$$

Azotning nazariy hajmini (3.32)dan aniqlaymiz:

$$V_{N_2}^0 = 0,79 V^0 + 0,8 N^i / 100 = 0,79 \cdot 5,73 + 0,8 \cdot 1,0 / 100 = 4,53 \text{ m}^3/\text{kg}.$$

Suv bug'larining nazariy hajmini (3.35)dan topamiz:

$$\begin{aligned} V_{H_2O}^0 &= 0,0124 (N^i + W^i) + 0,0161 V^0 = 0,0124 \times (9 \cdot 3,6 + 8,4) + \\ &+ 0,0161 \cdot 5,73 = 0,59 \text{ m}^3/\text{kg}. \end{aligned}$$

$\vartheta_g = 600 {}^\circ\text{C}$  da 1 kg ko'mir uchun yonish mahsulotlarining entalpiyasini (3.60) ifodadan aniqlaymiz:

$$\begin{aligned} I_g &= I_g^0 + (\alpha_{yo} - 1) I_h^0 = V_{RO_2} (s9)SO_2 + V_{N_2}^0 (c9)N_2 + V_{H_2O}^0 (s9)N_2O + \\ &+ (\alpha_{yo} - 1) V^0 (s9)_h = 1,04 \cdot 1222 + 4,53 \times 804 + 0,59 \cdot 967 + (1,35 - 1) \cdot 5,73 \\ &\quad \cdots 830 = 7148 \text{ kJ/kg}. \end{aligned}$$

(c9)SO<sub>2</sub>, (c9)N<sub>2</sub>, (s9)N<sub>2</sub>O va (s9)<sub>h</sub> qiymatlarni  $\vartheta_g = 600 {}^\circ\text{C}$  xaroratda 1-jadvaldan olinadi (Ilovaga qarang).

$\vartheta_g = 1000 {}^\circ\text{C}$  da

$$\begin{aligned} I_g &= I_g^0 + (\alpha_t - 1) I_h^0 = V_{RO_2} (s9)SO_2 + V_{N_2}^0 (s9)N_2 + V_{H_2O}^0 (s9)N_2O + \\ &+ (\alpha_t - 1) V^0 (s9)_v = 1,04 \cdot 3240 + 4,53 \times 2009 + 0,59 \cdot 2558 + \end{aligned}$$

$$(1,35 - 1) 5,73 \cdot 2076 = 18\ 143 \text{ kJ/kg.}$$

(c9)SO<sub>2</sub>, (s9)N<sub>2</sub>, (s9)N<sub>2</sub>O i (s9)<sub>h</sub> qiymatda  $\vartheta_g = 1000 \text{ } ^\circ\text{C}$  haroratda 1-jadvaldan olinadi (Illovaga qarang).

$$\vartheta_g = 2000 \text{ } ^\circ\text{Cda}$$


$$I_g = I_{g_i}^0 + (\alpha_t - 1) I_h^0 = V_{SO_2} (s9)SO_2 + V_{N_2}^0 (s9)N_2 + \\ + V_{N_2O}^0 (s9)N_2O + (\alpha_t - 1) V^0 \times (s9)_h = 1,04 \cdot 4843 + \\ + 4,53 \cdot 2964 + 0,59 \cdot 3926 + (1,35 - 1) 5,73 \cdot 3064 = 26\ 925 \text{ kJ/kg.}$$

Topilgan yonish mahsulotlari entalpiyalari qiymatlardidan  $I_\theta$  – diagrammani quramiz (3.2. - rasm).

## 4-BOB. QOZON QURILMALARI

### 4.1 Issiklik balansi. Qozon agregatining foydali ish koeffitsienti va yoqilg'i sarfi

Qozon agregatining issiqlik balansi deb, agregatga yoqilg'ini yokishda kiradigan issiqlikga tasirlanishi, foydali ishlataladigan issiqlik va issiqliknii yo'qolishlariga aytildi. 1 kg qattiq (suyuq) va 1 m<sup>3</sup> gazsimon yoqilg'iiga tuziladigan issiqlik balansi, qozon agregatining barqaror issiqlik holatida qo'llanadi.



3.2. - rasm. Yoqilg'ini yonish issiqligi 600 ... 2000 °C oralig'ida yonish mahsulotlari uchun  $I\theta$ -diagrammasi

Issiqlik balansining tenglamasi (kJ/kg, kJ/m<sup>3</sup>) quyidagi ko'rinishga ega;

$$Q_m^i = Q_1 + Q_2 + Q_3 + Q_4 + Q_5 + Q_6, \quad (4.1)$$

yoki mumkin bo'lgan issiqlik yoqilg'idagi foizi

$$q_1 + q_2 + q_3 + q_4 + q_5 + q_6 = 100\% \quad (4.2)$$

bunda  $q_1 = (Q_1 / Q_m^i) \cdot 100\%$ ;

$q_2 = (Q_2 / Q_m^i) \cdot 100$  va boshqalar.

(4.1) va (4.2) ifodalarda:

$Q_m^i$  - mumkin bo'lgan issiqlik miqdori, kJ/kg, (kJ/m<sup>3</sup>);

$Q_1(q_1)$  – qozon qurilmasida bug' olish uchun foydali ishlataladigan issiqlik, kJ/kg, (kJ/m<sup>3</sup>);

$Q_2(q_2)$  - chiqib ketayotgan tutun gazlari bilan yo'qoladigan issiqlik , kJ/kg, (kJ/m<sup>3</sup>);

$Q_3(q_3)$  - kimyoviy yoqilg'ini to'liq yonishidagi yo'qolgan issiqlik, kJ/kg, (kJ/m<sup>3</sup>);

$Q_4(q_4)$  - yoqilg'ining mexanik to'liq yonishida yo'qolgan issiqlik, kJ/kg, (kJ/m<sup>3</sup>);

$Q_5(q_5)$  -atrof muhitga yo'qolgan issiqlik, kJ/kg, (kJ/m<sup>3</sup>);

$Q_6(q_6)$  – shlakning fizik issiqligi bilan yo'qolgan issiqligi, kJ/kg, (kJ/m<sup>3</sup>);

1 kg qattiq (suyuq) va 1 m<sup>3</sup> gazsimon yoqilg'i uchun mumkin bo'lgan issiqlik (kJ/kg, kJ/m<sup>3</sup>) quyidagi ifodalardan aniqlanadi;

$$Q_m^i = Q_q + Q_{yo} + Q_n + Q_f - Q_k; \quad (4.3)$$

$$Q_m^i = Q_{suyuq} + Q_{yo} + Q_{kir.h} + Q_f. \quad (4.4)$$

bunda  $Q_{suyuq}^i$  va  $Q_{yo}^i$  - qattiq, suyuq ishni massaning yonishdagi va gazsimon yoqilg'ini quruk massasini yonishidagi va gazsimon pastki yonish issiqligi, kJ/kg, (kJ/m<sup>3</sup>);

$Q_{yo}$  - yoqilg'ini fizik issiqligi, kJ/kg, (kJ/m<sup>3</sup>);

$Q_{kir.h}$  - o'choqqa havo bilan kiradigan issiqlik, kJ/kg, (kJ/m<sup>3</sup>);

$Q_f$  - bug'li purkashi bilan o'choqqa kiritiladigan issiqlik, kJ/kg, (kJ/m<sup>3</sup>);

$Q_k$  - slanetslarni yonishida ajraladigan karbonatlarga sarflangan issiqlik, kJ/kg.

Yoqilg'ining fizik issiqligi:

$$Q_{yo} = c_{yo}^i t_{yo}. \quad (4.4')$$

bunda  $c_{yo}^i$  - yoqilg'i ishchi massasini issiqlik sig'imi, kJ/kg·°K;

$t_{yo}$  - yoqilg'ini o'choqqa kirishdagi harorati, °C.

Yoqilg'i ishchi massasining issiqlik sig'imi

$$c_{yo}^i = c_{yo}^e \frac{100 - W'}{100} + c_{H_2O} \frac{W'}{100}, \quad (4.5)$$

bunda  $c_{yo}^e$ ,  $c_{H_2O}$  - quruq massali yoqilg'ini va suvning issiqlik sig'imi, kJ/kg·°K.

[1] ga asosan:  $c_{yo}^e$  - antratsit uchun - 0,921; tosh ko'mirlar uchun - 0,962; qo'ngir ko'mir uchun - 1,088; torf uchun - 1,297 va slanetslar uchun - 1,046.

Mazutning issiqlik sig'imi:

$$c_{yo}^q = 1,74 + 0,0025t_{yo}. \quad (4.6)$$

Yoqilg'ining fizik issiqligi, agar yoqilg'i qozon agregatidan avval isitilgan bo'lsa, hisobga olinadi (mazutni isitilishi, yoqilg'ini ochiq sistemaga quritilishi va boshqalar)

Havo bilan o'choqqa kirdigan issiqlik:

$$Q_{kir,h} = \alpha_{yo} V^0 c'_{ls} \Delta t_h \quad (4.7)$$

bunda  $\alpha_{yo}$  - o'choqdagi havoning ortiqchalik koeffitsienti;

$V^0$  - 1 kg yoqilg'ini yonishi uchun kerak bo'lgan nazariy hajm, m<sup>3</sup>/kg;

$c'_{ts}$  - bosim o‘zgarmagandagi havoning o‘rtacha hajmiy issiqlik sig’imi,  $\text{kJ/m}^3 \cdot ^0\text{K}$ ;

$c'_{ph}$  - havoning harorati  $300 \ ^0\text{C}$ ,  $c'_{ph} = 1,33 \text{ kJ/m}^3 \cdot ^0\text{K}$ ;

$\Delta t_h$  - qizitilgan va sovuq havo haroratini farqi,  $^0\text{C}$ .

Bug’ning purkalish bilan o‘choqqa kiradigan issiqlik:

$$Q_f = W_f (i_f - 2510), \quad (4.8)$$

bunda  $W_f$  va  $i_f$  - yoqilg’ini maydaligi ketayotgan bug’ning sarfi va entalpiyasi,  $\text{kg/kg}$  va  $\text{kJ/kg}$ .

Purkash uchun  $V_f = 0,7 \div 0,8 \text{ kg/kg}$ , bug’ni forsunkalarda maydalanganida  $W = 0,35$ ; bug’li mexanikda  $V_f = 0,03 \div 0,035$ .

Yoqilg’ini yonishida karbonatlar hosil bo‘lishiga sarflangan issiqlik:

$$Q_k = 40,6 \ ^0\text{K} (CO_2)_k^t, \quad (4.8')$$

bunda  $K$  - karbonatlarhosil bo‘lish koeffitsienti.

Qozon agregatiga foydali ishlatilgan issiqlik ( $\text{kJ/kg}$ ):

$$Q_t = \frac{D_{\text{bug}^q}}{B} \left[ (i_{o'ta.q.b} - i_{uz.s}) + \frac{P}{100} (i_{qoz.s} - i_{uz.s}) \right] + D_{to.y.b} (i_{to.y.b} - i_{uz.s}), \quad (4.9)$$

bunda  $D_{to.y.b}$ ,  $D_{o'ta.q.b}$  - o‘ta qizigan va to‘yingan bug’li sarfi,  $\text{kg/s}$ ;

$B$  - natural yoqilg’ini sarfi,  $\text{kg/s}$ ;

$i_{o'ta.q.b}$ ,  $i_{to.y.b}$ ,  $i_{uz.s}$ ,  $i_{qoz.s}$  - o‘ta qizigan,to‘yingan bug’ni , uzatiluvchi va qozon suvining entalpiyasi,  $\text{kJ/kg}$ ;

$P$  - uzlusiz purkash kattaligi ,%.

Suvni isitib beruvchi qozonlarda foydali ishlatilgan issiqlik ( $\text{kJ/kg}$ ):

$$Q_i = \frac{M_u}{B} (i_2 - i_1), \quad (4.10)$$

bunda:  $i_1, i_2$  - qozonga tushuvchi va undan chiquvchi suvning entalpiyasi, kJ/kg;

$M_u$  - suvning sarfi, kg/s.

Qozon agregatiga foydali ishlatalgan issiqlik, %:

$$q_1 = (Q_i / Q_m^i) 100. \quad (4.11)$$

Chiqib ketayotgan gazlar bilan yo'qolgan issiqlik:

$$Q_2 = (V_{ket} c'_{p,ket} \vartheta_{ket} - \alpha_{ket} V s'_{t,t_h}) \cdot (100 - q_4) / 100 = (I_{ket} - \alpha_{ket} I_{x,s}^0) \cdot (100 - q_4) / 100 \quad (4.12)$$

bunda  $V_{ket}$  - qozon agregatining oxirgi gaz quvurlaridan chiqib ketayotgan gazlarning hajmi,  $m^3/kg$

$c'_{p,ket}$  - chiqib ketayotgan gazlarning bosim o'zgarmagandagi issiqlik sig'imi,  $kJ/m^{3,0}K$ ;

$\vartheta_{ket}$  - oxirgi gaz quvurlaridan chiqib ketayotgan gazlarning harorati,  $^{\circ}C$ .

$\alpha_{yo}$  - havoning ortiqchalik koefitsienti;

$V^0$  - 1kg yoqilg'ining yonishida kerak bo'ladigan havoning nazariy xajmi,  $m^3/kg$ ;

$t_h$  - qozondagi havoning harorati,  $^{\circ}C$ ;

$q_4$  - mexanik to'lik yonib bo'lmagandagi issiqlikni yo'qolishi, %;

$I_{ket}, I_{x,s}^0$  - ketayotgan gazlarni va sovuq havoning entalpiyasi,  $kJ/kg$ .

Ketayotgan gazlar bilan yo'qolgan issiqlik (%):

$$q_2 = (Q_i / Q_m^i) 100 = (I_{ket} - \alpha_{ket} I_{x,s}^0) (100 - q_4) / Q_i. \quad (4.13)$$

Yoqilg'ini kimyoviy to'liq yonib bo'limgandagi issiqlik yo'qolishi, u yonilg'i maxsulotlaridagi SO gazini miqdori bilan aniqlanadi:

$$Q_3 = 237 (C^i + 0,375 S_{uch}^i) CO / (RO_2 + SO). \quad (4.14)$$

bunda  $C^i$  va  $S_i^i$  - yoqilg'idagi uglerod va oltingugurtin miqdori, %;

$RO_2$  - uglerod oksidini ketayotgan gazlardagi miqdori, %;

$RO_2 = SO_2 + SO_2 - CO_2$  va  $SO_2$  larning ketayotgan gazlardagi miqdori, %.

Yoqilg'ini kimyoviy to'liq bo'limgandagi issiqlik (%) yo'qolishi:

$$q_3 = (Q_3 / Q_m^i) 100. \quad (4.15)$$

Yoqilg'ining mexanik to'liq yonib bo'limgandagi issiqlik yo'qolishi uchta tarkibni yig'indisidan topiladi:

- yoqilg'ini shlak bilan  $Q_4^{shl}$  yo'qolgan issiqligi, kJ/kg;

- kolosnikli reshyotkaga tushib ketayotgandagi yoqilg'ini yo'qotgan issiqligi  $Q_4^{kel}$ , kJ/kg;

- ketayotgan gazlardagi olib ketilayotgan yoqilg'i zarrachalarining yo'qotgan issiqligi  $Q_4^{vn}$ , kJ/kg.

Shunday qilib:

$$Q_4 = Q_4^{shl} + Q_4^{kel} + Q_4^{vn}. \quad (4.16)$$

Yoqilg'ini mexanik to'liq yonib bo'limgandagi issiqlik yo'qolishi (%):

$$q_4 = \frac{Q_4}{Q_k'} 100 = \frac{327 A'}{Q_k'} \left( a_{shl+kel} \frac{C_{shl+kel}}{100 - C_{shl+kel}} + a_{vn} \frac{C_{vn}}{100 - C_{vn}} \right), \quad (4.17)$$

bu yyerda  $A^{kul}$  - yoqilg'idiagi kullilikning miqdori, %;

$a_{shl+pr}$ ,  $a_{un}$  - o'choqqa kiritilgan yoqilg'idiagi shlakdagi kukuni, tushumdagmiqdori; %;

$S_{shl+kel}$ ,  $S_{un}$  - shlakdagi yonuvchilarini, ketayotgandagi tushuvchilarining miqdori, %.

Tashqi muhitga yo'qolgan issiqlik (kJ/kg) qozon agregatini yuzasining o'lchamlariga qoplama sifatiga va issiqlik izolyatsiyasiga bog'liqdir.

Hisoblashlarda ushbu yo'qolish qozon aggregatini ishlashidagi normativ kattaliklar bilan aniqlanadi va balans tenglamasi bo'yicha aniqlanadi:

$$Q_5 = Q_m^i - (Q_1 + Q_2 + Q_3 + Q_4 + Q_6), \quad (4.18)$$

yoki foizda

$$q_5 = 100 - (q_1 + q_2 + q_3 + q_4 + q_6), \quad (4.19)$$

Shlakning fizik issiqligidan yo'qolgan issiqligi (kJ/kg):

$$Q_6 = a_{shl} s_{shl} t_{shl} A^{kul} / 100 \quad (4.20)$$

bunda  $a_{shl}$  - shlakdagi yoqilg'i kukunining ulushi.

Kamerali o'choqlar uchun  $a_{shl} = 1 - a_{un}$  qatlamlili o'choqlarda  $a_{shl}$  ga tushishdagi  $a_{pr}$  yoqilg'ini ulushini qo'shish kerak bo'ladi:

$s_{shl}$  - shlakning issiqlik sig'imi, kJ/kg·°K;

$t_{shl}$  - shlakning harorati, °C;

$A^{kul}$  - yoqilg'idiagi kullilik miqdori, %.

Issiqlikning fizik issiqligidan yo'qolgan issiqlik (%):

$$q_6 = (Q_6 / Q'_m) \cdot 100 = a_{\text{shl}} s_{\text{shl}} t_{\text{shl}} A^i / Q_p^p \quad (4.21)$$

Qozon agregatining (brutto) va (netto) ning foydali ish koeffitsienti. Qozon agregatining (brutto) ning f.i.k. uchun ishslash iqtisodiyligini darajasini xarakterlaydi va ishlatalgan issiqlikni mumkin bo'lgan issiqlikga bo'lgan nisbati bilan xarakterlanadi, ya'ni:

$$\eta_{\text{ka}}^{\text{br}} = (Q_1 / Q'_m) \cdot 100, \quad (4.22)$$

yoki

$$\eta_{\text{ka}}^{\text{br}} = 100 - (q_2 + q_3 + q_4 + q_5 + q_6). \quad (4.23)$$

Qozon qurilmasining (netto) f.i.k. qozon agregatining f.i.k. dan stansianying o'ziga kerak bo'lgan issiqlik sarfini ayirmasiga tengdir:

$$\eta_{\text{ka}}^{\text{nr}} = \eta_{\text{ka}}^{\text{br}} - \frac{Q_{\text{o'z.sarfi}}}{BQ_k^i} \cdot 100, \quad (4.24)$$

bunda  $Q_{\text{o'z.sarfi}}$  - o'ziga sarflangan yoqilg'inining sarfi, kJ/kg.

Yoqilg'i sarfi qozon agregatlarini issiqlik hisobida natural sarf V va hisoblangan sarf V<sub>r</sub> ctiborga olinadi.

Yoqilg'inining natural sarfi quydag'i ifodadan aniqlanadi:

$$B = \frac{D_{\text{vugq}} [(i_{\text{to'y.b}} - i_{\text{uz.v}}) + (p/100)(i_{\text{qoz.s}} - i_{\text{uz.s}})] + D_{\text{to'y.b}} (i_{\text{to'y.b}} - i_{\text{uz.s}})}{Q'_i \eta_{\text{ka}}^{\text{ep}}} \times 100 \quad (4.25)$$

bu yerda  $\eta_{\text{ka}}^{\text{br}}$  - qozon agregatining (brutto) f.i.k, %;

Hisoblangan sarfi (kg/s) mexanik to‘liq yonib bo‘lmasligini hisobga olgan holda aniqlanadi:

$$V_{surf} = V \cdot (1 - q_4 / 100), \quad (4.26)$$

bu yerda  $q_4$  - mexanik to‘lik yonib bo‘lmasligandagi issiqlikni yo‘qolishi, %.

**4.1.-masala.** Bug ishlab chiqarish unumдорлигі  $D = 16,2 \text{ kg/s}$  teng bo‘lgan qozon agregatining o‘chog’ida markasi B2 va tarkibi  $C^i = 28,7\%$ ;  $H^i = 2,2\%$ ;  $S_{u_{ch}}^i = 2,7\%$ ;  $N^i = 0,6\%$ ;  $O^i = 8,6\%$ ;  $N^i = 25,2\%$ ;  $W^i = 32,0\%$ .

Tashkil etgan Moskva viloyatidagi ko‘mir yonadi. Agar o‘choqqa kirib kelayotgan yoqilg’i harorati  $t_{yo} = 30 {}^\circ\text{C}$ , yoqilg’ining sof sarfi  $V = 5 \text{ kg/s}$ , o‘ta qizigan bug’ bosimi  $r_{o_{ta} q,b} = 5 \text{ MPa}$  harorati  $t_{o_{ta} q,b} = 500 {}^\circ\text{C}$ , ta’minlovchi suv harorati  $t_{uz,s} = 170 {}^\circ\text{C}$ , uzluksiz purkash kattaligi  $R = 5\%$ , 1kg yoqilg’ini yo‘qolishidagi havoning nazariy hajmi  $V^0 = 2,94 \text{ m}^3/\text{kg}$  oxirgi gaz quvuridan chiqayotgan ketayotgan gazning xajmi  $V_{ket} = 4,96 \text{ m}^3/\text{kg}$ , ketayotgan gazlarning harorati  $\theta_{ket} = 180 {}^\circ\text{C}$  bosim o‘zgarmagandagi gazlarning o‘rtacha hajmiy issiqlik sig’imi  $c'_{p,ket} = 1,415 \text{ kJ/m}^{3,0}\text{K}$  havoning ortiqchalik koeffitsienti  $\alpha_{ket} = 1,52$  qozondagi havoning harorati  $t_h = 40 {}^\circ\text{C}$  havoning bosim o‘zgarmagandagi issiqlik sig’imi  $c_{ls} = 1,297 \text{ kJ/m}^{3,0}\text{K}$ , ketayotgan gazlarda isgazi (SO) ni miqdori  $SO = 0,2\%$  va uch atomli gazlar  $RO_2 = 18,6\%$  va yoqilg’i mexanik to‘liq yonib bo‘lmasligandagi issiqlik yo‘qolishi  $q_4 = 5\%$  ni tashkil etsa qozon agregatining issiqlik balansini tuzish.

**Yechish:** (3.12) ifoda yordamida yoqilg’ini quyi yonish issiqligini aniqlaymiz:

$$\begin{aligned} Q'_q &= 338C^i + 1025N^i - 108,5(O^i - S_{u_{ch}}^i) - 25 W^i = 338 \cdot 28,7 + 1025 \cdot 2,2 - \\ &- 108,5(8,6 - 2,7) - 25 \cdot 32 = 10\,516 \text{ kJ/kg}. \end{aligned}$$

(4.5) ifoda yordamida yoqilg'ini ishchi massasining issiqlik sig'imini aniqlaymiz:

$$c_{yo}^i = c_{yo}^q \cdot (100 - W)/100 + Sn_2O W/100 = 1,088 (100 - 32)/100 + \\ + 4,19 \cdot 32/100 = 2,08 \text{ kJ/kg} \cdot {}^0\text{K}.$$

(4.4) ifodadan yoqilg'ini fizik issiqlig'ini aniqlaymiz:

$$Q_{yo} = c_{yo}^q t_{yo} = 2,08 \cdot 30 = 62,4 \text{ kJ/kg}.$$

Mumkin bo'lishi bo'lgan issiqliknini (4.3) ifodadan:

$$Q_m^i = Q_q^i + Q_{yo} = 10\,516 + 62,4 = 10578,4 \text{ kJ/kg}.$$

(4.9) ifoda yordamida qozon agregatidagi foydali ishlatilgan issiqliknini aniqlaymiz:

$$Q_1 = (D_{bug, q}/B) [(i_{o'ta q,b} - i_{uz,s}) + (R/100)(i_{qoz,s} - i_{uz,s})] = (16,2/5)[(3438 - 719,3) \\ + \\ + (5/100)(1154,2 - 719,3)] = 8879 \text{ kJ/kg}.$$

$D_{bug, q} = D$  - to'yingan bug'lar olinmaganligi uchun.

Bug'ning entalpiyasi  $i_{o'ta q,b} = 3438 \text{ kJ/kg}$  ni is - diagramidan topamiz, ta'minlovchi suvning entalpiyasi 2,3-jadvaldan (ilovaga qarang)  $i_{uz,s} = i = 719,3 \text{ kJ/kg}$  (3-jadval  $t_{uz,s} = 170 {}^0\text{C}$ );  $i_{k,v} = i' = 1154,2$  (2-jadval,  $p_{o'ta q,b} = 5 \text{ MPa}$ )  $\text{kJ/kg}$ .

Ketayotgan gazlar bilan yo'qolgan issiqlik (4.12) dan topamiz:

$$Q_2 = (V_{ket} s'_{rket} \theta_{ket} - a_{ket} V^\circ c'_{ts} t_p) (100 - q_4)/100 =$$

$$= (4,96 \cdot 1,415 \cdot 160 - 1,52 \cdot 2,94 \cdot 1,297 \cdot 40) (100 - 5)/100 = 980 \text{ kJ/kg.}$$

(4.14) ifoda yordamida yoqilg'ini kimyoviy to'liq yonib bo'lmasligida yo'qolgan issiqlikni aniqlaymiz:

$$\begin{aligned} Q_3 &= 237 (C + 0,375 S_i^*) CO/(RO_2 + SO) = \\ &= 237 (28,7 + 0,375 \cdot 2,7) 0,2/(18,6 + 0,2) = 75 \text{ kJ/kg} \end{aligned}$$

Yoqilg'ining mexanik to'liq yonib bo'lmasligandagi yo'qolgan issiqlikni (4.17) dan topamiz :

$$Q_4 = q_4 Q_m^i / 100 = 5 \cdot 10578,4 / 100 = 529 \text{ kJ/kg.}$$

Tashqi muxxitga yo'qolgan issiqlikni (4.18) dan aniqlaymiz:

$$\begin{aligned} Q_5 &= Q_m^i - (Q_1 + Q_2 + Q_3 + Q_4) = 10\,578,4 - (8879 + 980 + 75 + 529) = \\ &= 115,4 \text{ kJ/kg.} \end{aligned}$$

Issiqlikni balansini tashkil etuvchilar:

$$q_1 = (Q_1/Q_m^i) 100 = (8879/10578,4) 100 = 83,2 \text{ \%};$$

$$q_2 = (Q_2/Q_m^i) 100 = (980/10578,4) 100 = 9,26 \text{ \%};$$

$$q_3 = (Q_3/Q_m^i) 100 = (75/10578,4) 100 = 0,71 \text{ \%};$$

$$q_5 = (Q_5/Q_m^i) 100 = (115,4/10578,4) 100 = 1,09 \text{ \%}.$$

Qozon agregatining issiqlik balansini (4.11) ifodadan:

$$Q_p^i = Q_1 + Q_2 + Q_3 + Q_4 + Q_5 = 8879 + 980 + 75 + 529 + 115,4 = \\ = 10578,4 \text{ kJ/kg.}$$

Yoqilg'ini mumkin bo'lgan issiqligi foiz-% hisobida (4.2) ifodadan:

$$q_1 + q_2 + q_3 + q_4 + q_5 = 83,94 + 9,26 + 0,71 + 5,0 + 1,09 = 100 \text{ %.}$$

**Javob:**  $Q_m^i = 10578,4 \text{ kDj/kg; } q_1 + q_2 + q_3 + q_4 + q_5 = 100 \text{ %.}$

**4.2.-masala.** Qozonning o'chog'idagi tarkibi C=84,65%; H=11,7%; S<sub>veh</sub><sup>i</sup>=0,3%; O=0,3%; A=0,05%; W=3,0%; ega bo'lgan oltingugurti kam bo'lgan mazut yoqiladi. Agar mazutning isitilishi harorati  $t_i = 93 \text{ }^\circ\text{C}$  va bug'li forsunkalar orqali purkalish entalpiyasi  $i_f = 3280 \text{ kJ/kg}$  bo'lsa, mumkin bo'lgan issiqlikni aniqlang.

**Javob:**  $Q_m^i = 40982 \text{ kJ/kg.}$

**4.3.-masala.** Markasi B3 bo'lgan tarkibi: C=37,3%; H=2,8%; S<sub>f</sub><sup>i</sup>=1,0%; N=0,9%; O=10,5%; A=29,5%; W=18% ga ega bo'lgan Chelyabinsk ko'miri yoqiladi. Agar qozonga kirib keladigan yoqilg'ini harorati  $t_i = 20 \text{ }^\circ\text{C}$  ga teng bo'lsa, mumkin bo'lgan issiqlikni aniqlang:

**Javob:**  $Q_m^i = 14030 \text{ kJ/kg.}$

**4.4.-masala.** Agar yoqilg'inining sof sarfi  $V = 1,2 \text{ kg/s}$ , suvning sarfi  $M_h = 70 \text{ kg/s}$ . qozonga kirayotgan suvning harorati  $t_1 = 70 \text{ }^\circ\text{C}$ , va chiqishdagi harorati  $t_2 = 150 \text{ }^\circ\text{C}$  bo'lsa, suvni isitib beruvchi qozonlarning foydali ishini toping.

**Javob:**  $Q_i = 19553 \text{ kJ/kg.}$

**4.5.-masala.** Agar yoqilg'inining sof sarfi  $V = 0,64 \text{ kg/s}$ , o'ta qizigan bug'ning bosimi  $p_{o'ta \ g.b} = 1,3 \text{ MPa}$ ,  $t_i = 275 \text{ }^\circ\text{C}$ , ta'minlovchi suvning harorati  $t_{t.s} = 100 \text{ }^\circ\text{C}$  uzlusiz purkash kattaligi R = 3% ni tashkil etsa, bug' ishlab chiqarish unumdorligi  $D = 5,45 \text{ kg/s}$  qozon aggregatining foydali ishlatilgan issiqlikni aniqlang.,

**Javob:**  $Q = 21996 \text{ kJ/kg.}$

**4.6.-masala.** Qozon agregatida bug' ishlab chiqarish unumdorligi  $D = 5,6 \text{ kg/s}$  ga teng bo'lgan tarkibi  $C^i = 41,5\%$ ;  $H^i = 2,9\%$ ;  $S_{uch}^i = 0,4\%$ ;  $N^i = 0,6\%$ ;  $O^i = 13,1\%$ ;  $A^i = 8,0\%$ ;  $W^i = 33,5\%$ . tashkil etgan B2 markali aban ko'miri yoqiladi. Agar yoqilg'ining sof sarfi  $V = 1,12 \text{ kg/s}$ , o'ta qizigan bug'ning bosimi  $r_{o\cdot ta\cdot q.b} = 4 \text{ MPa}$ , harorati  $t_{o\cdot ta\cdot q.b} = 400^\circ\text{C}$ , ta'minlovchi suvning harorati  $t_{uz.s} = 130^\circ\text{C}$  uzlusiz purkash kattaligi  $R = 3\%$  va o'choqqa kirayotgandagi yoqilg'i harorati  $t_h = 20^\circ\text{C}$ , bo'lsa qozon agregatining foydali ishlatilgan issiqlik foiz hisobidagichini aniqlang.

**Javob:**  $q_1 = 91\%$ .

**4.7.-masala.** Qozon qurilmasida tarkibi  $C^i = 83,0\%$ ;  $H^i = 10,4\%$ ;  $S_{uch}^i = 2,8\%$ ;  $O^i = 0,7\%$ ;  $A^i = 0,1\%$ ;  $W^i = 3,0\%$  ni tashkil etgan, bug' ishlab chiqarish unumdorligi  $D = 7,22 \text{ kg/s}$  bo'lgan yuqori oltingugurtli mazut yoqiladi. Agar mazutni isitish haroratini  $t_t = 90^\circ\text{C}$ , yoqilg'ini sof sarfi  $V = 0,527 \text{ kg/s}$ , o'ta qizigan bug' bosimi  $r_{o\cdot ta\cdot q.b} = 1,3 \text{ MPa}$ , harorati  $t_{p.n} = 250^\circ\text{C}$ , ta'minlovchi suvning harorati  $t_{uz.s} = 100^\circ\text{C}$  va uzlusiz purkash kattaligi  $R = 4\%$  ni tashkil etsa, mumknn bo'lgan issiqliknini va qozon agregatida ishlatiladigan foydali issiqliknini foizini aniqlaydi.

**Javob:**  $Q_m' = 39044 \text{ kJ/kg}$ ;  $q_1 = 89,5\%$ .

**4.8.-masala.** Qozon agregatida bug' ishlab chiqarish unumdorligi  $D = 4,2 \text{ kg/s}$  va quyi yonish issiqligi  $Q_c' = 35700 \text{ kJ/m}^3$  ga teng bo'lgan Dashavsk ko'miri yoqiladi. Agar yoqilg'ining sof sarfi  $B = 0,32 \text{ m}^3/\text{s}$ ,  $1 \text{ m}^3$  yoqilg'ini yonib bo'lishidagi havoning nazariy hajmi  $V^0 = 9,5 \text{ m}^3/\text{m}^3$ , o'ta qizigan bug'ning bosimi  $r_{o\cdot ta\cdot q.b} = 4 \text{ MPa}$ , harorati  $t_{o\cdot ta\cdot q.b} = 400^\circ\text{C}$  ta'minlovchi suvning harorati  $t_{uz.s} = 130^\circ\text{C}$ , havoni harorati  $t_h = 30^\circ\text{C}$ , qozonga kirayotgan havoning harorati  $t'_h = 230^\circ\text{C}$  va o'choqdagi havoning ortiqchalik koefitsienti  $\alpha_t = 1,1$  bo'lsa, qozonga ishlatilgan foydali issiqliknini  $\text{kJ/m}^3$  va foiz hisobida aniqlang.

**Javob:**  $Q_t = 35568 \text{ kJ/m}^3$ ;  $q_t = 92,4\%$ .

**4.9.-masala.** Qozon o'chog'ida tarkibi:  $C^i = 84,65\%$ ;  $H^i = 11,7\%$ ;  $S_{uch}^i = 0,3\%$ ;  $O^i = 0,3\%$ ;  $A^i = 0,05\%$ ;  $W^i = 3,0\%$  tashkil etgan oltingugurti bo'lgan mazuti yoqiladi. Agar qozon agregatini havoning ortiqchalik koefitsienti  $\alpha_{ket} = 1,25$  ketayotgan

gazlarning harorati  $\theta_{\text{ket}} = 180 \text{ }^{\circ}\text{C}$  qozondagi havoning harorati  $t_h = 40 \text{ }^{\circ}\text{C}$ , havoning bosim o'zgarmaganda o'rtacha hajmiy issiqlik sig'imi  $c'_{\text{sh}} = 1,297 \text{ kJ/(m}^3\cdot\text{K)}$ , mazutni isish harorati  $t_i = 95 \text{ }^{\circ}\text{C}$  ni tashkil etsa, qozon qurilmasidan ketayotgan gazlar bilan yo'qolgan issiqliknini  $\text{kJ/kg}$  da va foizda aniqlang.

**Yechish:** Yoqilg'ini ishchi massasining quyi issiqligi (3.12) ifodadan aniqlaymiz:

$$\begin{aligned} Q'_q &= 338C^i + 1025 - N^i - 108,5(O^i - S'_{\text{uch}}) - 25W^i = 338 \cdot 84,65 + \\ &+ 1025 \cdot 11,7 - 108,5(0,3 - 0,3) - 25 \cdot 3,0 = 40529 \text{ kJ/kg}. \end{aligned}$$

Issiqlikning sig'imiini (4.6) ifodadan aniqlaymiz:

$$c'_{y_0} = 1,74 + 0,0025t_i = 1,74 + 0,0025 \cdot 95 = 1,98 \text{ kJ/kg}\cdot\text{K}.$$

Yoqilg'ining fizik issiqligini (4.4) ifoda yordamida aniqlaymiz:

$$Q_{\text{ll}} = c''_{\text{r}} t_i = 1,98 \cdot 95 = 188 \text{ kJ/kg}.$$

(4.3) ifoda yordamida mumkin bo'lgan issiqliknini aniqlaymiz:

$$Q'_m = Q'_q + Q_{y_0} = 40\ 529 + 188 = 40\ 717 \text{ kJ/kg}.$$

1 kg qattiq yoki suyuq yoqilg'ining to'liq yonishi uchun quruq havoning nazariy hajmini quyidagi (3.27) ifodadan aniqlaymiz:

$$\begin{aligned} V^0 &= 0,089C^i + 0,266N^i + 0,033(S'_{\text{uch}} - O^i) = 0,089 \times 84,65 + \\ &+ 0,266 \cdot 11,7 + 0,033(0,3 - 0,3) = 10,62 \text{ m}^3/\text{kg}. \end{aligned}$$

(3.33) ifodadan uch atomli gazlarning hajmini topamiz:

$$V_{SO_2} = 0,0187 (C^i + 0,375 S_i^i) = 0,0187 (84,65 + 0,375 \times 0,3) = 1,58 \text{ m}^3/\text{kg}.$$

Azot gazlarning nazariy hajmini (3.32) ifodadan aniqlaymiz:

$$V_{N_2}^0 = 0,79 V^0 + 0,8 N^i / 100 = 0,79 \cdot 10,62 = 8,39 \text{ m}^3/\text{kg}.$$

(3.35) ifodadan suv bug'larining nazariy hajmi topamiz:

$$\begin{aligned} V_{N_2O}^0 &= 0,0124 (9N^i + W^i) + 0,0161 V^0 = 0,0124 \times (9 \cdot 11,7 + 3,0) + \\ &+ 0,0161 \cdot 10,62 = 1,51 \text{ m}^3/\text{kg}. \end{aligned}$$

$\alpha_{yo} = 1$  va  $\theta_{ket} = 180^\circ\text{C}$  bo'lgandagi yonish maxsulotlarining entalpiyasini (3.61) ifoda yordamida aniqlaymiz:

$$\begin{aligned} I_g^o &= V_{SO_2} (s9) SO_2 + V_{N_2}^0 (c9) N_2 + V_{N_2O}^0 (s9) N_2O = \\ &= 1,58 \cdot 319,4 + 8,39 \cdot 234 + 1,51 \cdot 273,4 = 2881 \text{ kDj/kg}. \end{aligned}$$

(s9)SO<sub>2</sub>, (c9)N<sub>2</sub> va (s9)N<sub>2</sub>O larning qiymatini 1-jadvaldan aniqlaymiz (ilovaga qarang).

$\alpha_{yo} = 1$  va  $\theta_{ket} = 180^\circ\text{C}$  bo'lganda havoning entalpiysi (3.62) ifodadan aniqlaymiz:

$$I_b^o = V^0 (s9)_h = 10,62 \cdot 239,2 = 2540 \text{ kJ/kg}.$$

(s9)<sub>h</sub> ni qiymatini 1-jadvaldan topamiz (ilovaga karang).

(s9)SO<sub>2</sub>, (c9)N<sub>2</sub> va (s9)N<sub>2</sub>O larning qiymatini 1-jadvaldan aniqlaymiz (ilovaga qarang).

$\vartheta_{\text{ket}} = 160^{\circ}\text{C}$  bo‘lganda (3.60) ifodadan yoqilg‘i maxsulotlarining ental’piyasini aniqlaymiz:

$$I_{\text{ket}} = I_{\text{v}}^{\circ} + (\alpha_{\text{kir}} - 1) I_{\text{h}}^{\circ} = 2881 + (1,25 - 1) 2540 = 3516 \text{ kJ/kg.}$$

Sovuq havoning entalpiyasi:

$$I_{\text{s,h}}^{\circ} = V^0 s'_{\text{ts,h}} t_{\text{h}} = 10,62 \cdot 1,297 \cdot 40 = 551 \text{ kJ/kg.}$$

(4.12) ifodadan ketayotgan gazlar bilan yo‘qolgan issiqlikni aniqlaymiz:

$$Q_2 = (I_{\text{ket}} - \alpha_{\text{ket}} I_{\text{s,h}}^{\circ}) \frac{100 - q_4}{100} = (3516 - 1,25 \cdot 551) \frac{100 - 0}{100} = 2827 \text{ kJ/kg.}$$

(4.13) ifodadan foizdagi hisobini topamiz:

$$q_2 = (Q_2 / Q_p^{\circ}) 100 = (2827 / 40717) 100 = 6,94\%.$$

**Javob:**  $Q_2 = 2827 \text{ kJ/kg}$ ,  $q_2 = 6,94\%$ .

**4.10.- masala.** Qozon agregatida tarkibi  $C^i = 54,7\%$ ;  $H^i = 3,3\%$ ;  $S_{\text{nek}}^i = 0,8\%$ ;  $N^i = 0,8\%$ ;  $O^i = 4,8\%$ ;  $A^i = 27,6\%$ ;  $W^i = 8,0\%$  bo‘lgan Karaganda ko‘miri yoqiladi. Agar havoning ortiqchalik koeffitsienti  $\alpha_{\text{ket}} = 1,43$ , oxirgi gaz xarakatlanuvchi quvurdan chiqayotgan gazlarning hajmi  $V_{\text{ket}} = 8,62 \text{ m}^3/\text{kg}$ , ketayotgan gazlarning harorati  $\vartheta_{\text{ket}} = 150^{\circ}\text{C}$  bosim o‘zgarmagandagi gazlarning hajmiy issiqlik sig’imi  $c'_{\text{rv}} = 1,4 \text{ kJ/m}^3 \cdot ^\circ\text{K}$ , qozondagi havoning harorati  $t_{\text{h}} = 30^{\circ}\text{C}$ , havoning bosim o‘zgarmagandagi issiqlik sig’imi  $c'_{\text{rv}} = 1,297 \text{ kJ/m}^3 \cdot ^\circ\text{K}$  va yoqilg‘ining mexanik to‘liq yonib bo‘limganda issiqlik yo‘qolishi  $q_4 = 3\%$  ni tashkil etsa, qozon aggregatining ketayotgan gazlar bilan yo‘qolgan issiqlikni aniqlang  $Q_2$ .

**Javob:**  $Q_2 = 1454 \text{ kJ / kg}$ .

**4.11.-masala.** Qozon qurilmasida quyи issiqligi  $Q_k^i = 27600 \text{ kJ/kg}$  bo'lgan ko'mir yoqiladi qozon aggregatining va ketayotgan gazlar bilan % (protsent) hisobiga yo'qolgan issiqlikni aniqlang, agar havoning ortiqchalik koeffitsienti  $\alpha_{ket} = 1,4$ , ketayotgan gazlarning hajmi  $V_{ket} = 10,5 \text{ m}^3/\text{kg}$  ketayotgan gazlarning harorati  $\theta_{ux} = 160 \text{ }^\circ\text{C}$  gazlarning  $p = \text{const}$  bo'lganligi issiqlik sig'imi  $c'_{p,ket} = 1,415 \text{ kDj}/(\text{m}^3 \cdot \text{K})$ , 1kg yoqilg'ini yonishi uchun zarur bo'lgan havoning nazariy hajmi  $V^0 = 7,2 \text{ m}^3/\text{kg}$ , qozondagi havoning harorati  $t_h = 30 \text{ }^\circ\text{C}$  o'choqqa kirib kelayotgan havoning harorati  $t'_h = 180 \text{ }^\circ\text{C}$ , o'choqdagi havoning ortiqchalik koeffitsienti  $\alpha_{yo} = 1,2$ : xavoning bosim o'zgarmagandagi hajmiy issiqlik sig'imi  $c'_{p,h} = 1,297 \text{ kJ/m}^3 \cdot \text{K}$  va yoqilg'ini mexanik to'liq yonib bo'lmasligi tufayli yo'qolgan issiqlik  $q_4 = 4\%$  ni tashkil etsa.

**Javob:**  $q_2 = 6,5 \%$ .

**4.12.-masala.** Ketayotgan gazlarning harorati  $V_k = 160 \text{ }^\circ\text{C}$  dan  $180 \text{ }^\circ\text{C}$  gacha ortsa, ketayotgan gazlar bilan yo'qolish, va qozon aggregatining issiqlik yo'qolishi kancha ko'tariladi, agar havoning ortiqchalik koeffitsienti  $\alpha_k = 1,48$ , oxirgi gaz harakatlanuvchi quvurdan chiqib ketayotgan gazlarning hajmi  $V_k = 4,6 \text{ m}^3/\text{kg}$ , gazlarning bosim o'zgarmagandagi hajmiy issiqlik sig'imi  $c_p^1 = 1415 \text{ kJ/m}^3 \cdot \text{K}$  1 kg yoqilg'ini yonishi uchun zarur bo'lgan havoning nazariy hajmi  $V^0 = 2,5 \text{ m}^3/\text{kg}$ , qozondagi havoning harorati  $t_h < 30 \text{ }^\circ\text{C}$  havoning bosim o'zgarmagandagi hajmiy issiqlik sig'imi  $c_p^1 = 1,297 \text{ kDj/m}^3 \cdot \text{K}$  issiqlik yo'qolishi  $Q_4 = 340 \text{ kJ/kg}$  bo'lsa qozon aggregati quyи issiqligi  $Q_k^i = 8500 \text{ kJ/kg}$  teng bo'lgan tarafda ishlaydi.

**Javob:**  $\Delta q_2 = 1,5\%$

**4.13.-masala.** Ketayotgan gazlarning va qozon aggregatining foiz hisobidagi issiqlik yo'qolishini aniqlang, agar havoning ortiqchalik koeffitsienti  $\alpha_{ket} = 1,5$ , ketayotgan gazlarning harorati  $\theta_{ket} = 150 \text{ }^\circ\text{C}$  qozonxonadagi havoning harorati  $t_h = 30 \text{ }^\circ\text{C}$ : havoning bosim o'zgarmagandagi issiqlik sig'imi  $c'_{p,h} = 1,297 \text{ kJ/m}^3 \cdot \text{K}$ , 1kg yoqilg'ini yonish uchun zarur bo'lgan havoning nazariy hajmi  $V^0 = 5,815 \text{ m}^3/\text{kg}$ , qozondagi havoning harorati  $t_h = 30 \text{ }^\circ\text{C}$ , havoning o'rtacha bosimi o'zgarmagandagi

issiqlik sig'imi  $c'_p = 1,297 \text{ kJ/m}^3 \cdot ^\circ\text{K}$ , yoqilg'ini mexanik to'liq yonib bo'lmasligida issiqlik yo'qolishi  $q_4 = 3,5\%$  tashkil etsa qozon agregati markasi B2 bo'lgan : C<sup>i</sup>=41,5%; H<sup>i</sup>=2,9%; S<sup>i</sup><sub>uch</sub>=0,4%; N<sup>i</sup>=0,6%; O<sup>i</sup>=13,1%; A<sup>i</sup>=8,0%; W<sup>i</sup>=33,5% tashkil etgan aban ko'mirida ishlaydi.

**Javob:**  $q_2 = 8,0\%$ .

$$c_1 = 44,7\varphi\sqrt{h_0(1-\rho)} = 44,7 \cdot 0,98\sqrt{280(1-0,58)} \approx 475 \text{ m/s.}$$

Parraklar o’rtasidagi aylanma tezlikni  $i/s_1 = 0,45$  ifodadan aniqlaymiz:

$$i - 0,45s_1 = 0,45 \cdot 475 = 214 \text{ m/s.}$$

Parraklar o’rtasidagi kanaldan bug’ni chiqishidagi nisbiy tezlikni (5.7) ifodadan aniqlaymiz:

$$\omega_1 = 44,7\Psi\sqrt{\rho h_0 \cdot (\omega_1 / 44,7)^2} = 44,7 \cdot 0,92\sqrt{0,58 \cdot 280 \cdot (280/44,7)^2} = 769 \text{ m/s}$$

Bug’ni ishchi parrakga kirishdagi burchagini (5.9) ifodadan aniqlaymiz:

$$\begin{aligned} \operatorname{tg}\beta_1 &= s_1 \sin\alpha_1 (c_1 \cos\alpha_1 - u) = 475 \cdot 0,309 / (475 \cdot 0,951 - 214) = 0,6174; \\ \beta_1 &= 31^\circ 42'. \end{aligned}$$

Bug'ning ishchi parrakdan chiqishdagi burchagini

$$\beta_2 = \beta_1 - 2^\circ 30' = 31^\circ 42' - 2^\circ 30' = 29^\circ 12'$$

1 kg bug'ni parraklarda bajargan ishi (5.11) ifodadan aniqlanadi:

$$l = i (\omega_1 \cos \beta_1 + \omega_2 + \cos \beta_2) = 214 (280 \cdot 0,8508 + 769 \cdot 0,8729) = \\ = 194,63 \text{ kJ/kg.}$$

**Javob:**  $l = 194,63 \text{ kDj/kg.}$

## 5.2. Turbina pog'onalaridagi yo'qolishlar.

### Turbina pog'onalaridagi foydali ish koeffitsientlari

Turbina pog'onasidagi yo'qolishlar. Turbina pog'onasidagi ishchi jarayon bug'ning issiqlik energiyasini yo'qolishlari bilan sodir bo'ladi.

Ularga quyidagilar kiradi:

bug'ni tartibsiz xarakati tufayli va ishqalanishi natijasida kelgan soplodagi issiqlik (kJ/kg) energiyasini yo'qolishi

$$h_c = (1/\varphi^2 - 1) c_i^2 / 2000, \quad (5.12)$$

aktiv pog'onadagi ishchi parraklarda issiqlik (kJ/kg) energiyasini yo'qolishi

$$h_{par} = (1 - \psi^2) \omega_i^2 / 2000, \quad (5.13)$$

reakтив pog'onada parraklardagi issiqlik (kJ/kg) energiyasini yo'qolishi

$$h_{par} = (1/\psi^2 - 1) \cdot \omega_z^2 / 2000. \quad (5.14)$$

chiqayotgan mutloq tezliklar bilan issiqlik (kJ/kg) energiyasini yo‘qolishi:

$$h_{chiq} = c_z^2 / 2000, \quad (5.15)$$

bug’ bilan turbina diskining aylanishida ventilyatsiyasidagi va ishqalanishda issiqlik (kJ/kg) energiyasini yo‘qolishi (A. Stodol tenglamasidan aniqlanadi):

$$h_{v,ish} = \lambda [1,07d^2 + 0,61z(1-\varepsilon)dl_2^{1.5}] (l/v) (u^3/10^6) \times (1/M), \quad (5.16)$$

Bunda:  $\lambda$  - o‘ta qizigan bug’ uchun 1,1 – 1,2, to‘yingan bug’ uchun 1,3 ga teng bo‘lgan koefitsienti;

$d$  - pog’onaning o‘rtacha diametri, m;

$z$  - tezlik pog’onalari soni;

$\varepsilon$  - bug’ni chiqarib yuborishdagi partsiallik darajasi;

$l_2$  - ishchi parraklarni chiqishdagi balandligi, sm;

$v$  - pog’ona kamerasidagi bo‘g’inning solishtirma xajmi,  $m^3/kg$ ;

$M$  - pog’onadagi bug’inning sarfi, kg/s ( $kg/ik$ );

Soplo va parraklarni o‘ralgan joyidagi teshiklardan oqib chiqayotgan issiqlik (kJ/kg) energiyasini yo‘qolishi:

$$h_{o,chiq} = M_{o,chiq} \cdot h_0 / M, \quad (5.17)$$

Bunda:  $M_{o,chiq}$  – oqib chiqishdagi bug’ning sarfi, kg/s ( $kg/ik$ ).

Turbina pog’onasining foydali ish koefitsienti (f.i.k.). Soplodagi, parraklardagi va turbina pog’onalaridagi mutloq tezliklar bilan chiqishdag’ yo‘qolishlar, parraklardagi nisbiy f.i.k.  $\eta_{a,p}$  bilan baxolanadi, u pog’ona parraklarida

1 kg bug'ni mexanik bajargan ishini ( $l$ ), mumkin bo'lgan issiqlikning keskin o'zgarishi( $h_0$ ) ga bo'lgan nisbati bilan aniqlanadi:

$$\eta_{n,p} = (h_0 - h_c - h_p - h_v)/h_0 = l/h_0, \quad (5.18)$$

Parrakdan nisbiy f.i.k., parraklar o'rtaсидаги аяланнаның тезлікни, бұғанын соплодан оқиб чиқышдагы ғарияттың тезлігіне бәлгілі болады, яғни  $i/s_1$ , шунинг үчүн актив пог'оналар үчүн нисбиy f.i.k.

$$\eta_{n,p} = 2\varphi^2 (i/s_1) (1 + \psi \cos\beta_2 / \cos\beta_1) (\cos\alpha_1 - u/c_1), \quad (5.19)$$

Реактивлік дарајасы  $\rho = 0,5$  болған реактив пог'оналар үчүн нисбиy f.i.k.

$$\eta_{n,p} = (i/s_1) (2 \cos\alpha_1 - i/s_1) / [(1/\varphi^2 - 1) + (i/s_1) (2 \cos\alpha_1 - i/s_1)] \quad (5.20)$$

Пог'онадагы issiqlik yo'qolishlari ichki nisbiy f.i.k. –  $\eta_{n,i}^n$  bilan baxolanadi, у исхлатылып issiqlikni keskin o'zgarishini –  $h_1$  ni, mumkin bo'lgan issiqlikning keskin o'zgarishi –  $h_0$  ga bo'lgan nisbatiga teng.

$$\eta_{n,i}^n = h_1/h_0 = (h_0 - h_c - h_p - h_{chiq} - h_{ish.v} - h_{o.chiq})/h_0, \quad (5.21)$$

Aktiv pog'onaning nisbiy ichki f.i.k.

$$\eta_{n,i}^n = \eta_{n,i} - \zeta_{ish.v} - \zeta_{o.chiq} = 2\varphi^2 (i/s_1) \cdot (1 + \psi \cos\beta_2 / \cos\beta_1) \cdot (\cos\alpha_1 - i/s_1) - \zeta_{ish.v} - \zeta_{o.chiq}, \quad (5.22)$$

bunda:  $\zeta_{ish.v}$  – исхқаланышда жана вентилатсиядагы турбина дискінин аяланышидагы issiqlik energiyani nisbiy yo'qolishi,  $\zeta_{ish.v} = h_{ish.v}/h_0$ ;

$\zeta_{o.chiq}$  – сопло жаңа парраларның о'ралған тешіктардан issiqlik energiyasining nisbiy yo'qolishi,  $\zeta_{o.chiq} = h_{o.chiq}/h_0$ .

Reaktivlik darajasi  $\rho = 0,5$  ga teng bo'lgan reaktiv pog'onaning nisbiy f.i.k.

$$\eta_{o,i}^u = \frac{u/c_1(2\cos\alpha_1 - u/c_1)}{(1/\varphi_2 - 1) + (u/c_1)(2\cos\alpha_1 - u/c_1)} - \zeta_{ishq} - \zeta_{o,ishq}. \quad (5.23)$$

Agar pog'onada avvalgi pogonaning chiqish tezlik ishtirok etgan bo'lsa, u holda pog'onaning nisbiy f.i.k. quyidagi ifodadan aniqlanadi:

$$\eta_{o,i}^u = [\mu h_{av, chiq}^{av} + h_0 - (h_c + h_{par} + h_v + h_{ish,v} + h_{o, chiq})] / (\mu h_{av, chiq}^{av} + h_0), \quad (5.24)$$

bunda:  $h_{av, chiq}^{av}$  - avvalgi pog'onadan chiqish tezlikdagi issiqlik energiyasi, kDj/kg -  $h_{av, chiq}^{av} = S_{av}^2 / 2000$ ;

$\mu$  - ishchi parraklardan chiqish tezlikda sarflangan energiyani bildiruvchi koefitsienti,  $\mu = 0,8 - 1,0$ .

**5.27.-masala.** Aktiv pog'onada bug' boshlang'ich parametrlari  $p_0 = 3,5$  MPa va  $t_0 = 400$  °C bilan bosimi  $p_1 = 2,2$  MPa bo'lguncha kengayadi. Agar tezlik koefitsienti  $\varphi = 0,95$ , parraklarning tezlik koefitsienti  $\Psi = 0,87$ , disk yuzasiga soploring egiluvchanlik burchagi  $\alpha_1 = 15^\circ$ , parraklar o'rtaqidagi aylanma tezlikni bug'ni soplidan oqib chiqishdagi xaqiqiy tezlik nisbati  $i/s_1 = 0,43$  bo'lsa soplodagi va parraklardagi yo'qolishlarni toping.

**Javob:**  $h_c = 13,1$  kJ/kg;  $h_{par} = 10,4$  kJ/kg.

**5.28.-masala.** Bug' boshlang'ich parametrlari  $p_0 = 1,6$  MPa va  $t_0 = 300$  °C bilan bosimi  $p_2 = 1,0$  MPa bo'lguncha reaktiv pog'onada kengayadi. Agar soploring tezlik koefitsienti  $\varphi = 0,94$ , parraklarning tezlik koefitsienti  $\Psi = 0,89$ , disk yuzasiga soploring egiluvchanlik burchagi  $\alpha_1 = 16^\circ$ , parraklar o'rtaqidagi aylanma tezlikning bug'ini soplidan oqib chiqishdagi xaqiqiy tezlik nisbati  $i/s_1 = 0,44$  va pog'onaning reaktivlik darajasi  $\rho = 0,5$  bo'lsa soplodagi va parraklardagi yo'qolishlarni toping.

**Javob:**  $h_c = 6,4$  kJ/kg;  $h_{par} = 4,4$  kJ/kg.

**5.29.-masala.** Agar soploring soplordan oqib chiqishdagi haqiqiy tezlik  $s_1 = 375$  m/s, parraklarning tezlik koeffitsienti  $\Psi = 0,87$ , disk yuzasiga soploring egiluvchanlik burchagi  $\alpha_1 = 13^\circ$ , parraklar o'rta sidagi aylanma tezlikni bug'ni soplordan oqib chiqishdagi xaqiqiy tezlik nisbati  $i/s_1 = 0,45$  va parrakkadan bug'ning chiqish burchagi  $\beta_2 = 23^\circ 15'$  bo'lsa, aktiv pog'onadan mutloq tezlik bilan chiqishdagi issiqlik energiyasini yo'qolishini aniqlang.

**Javob:**  $h_{chq} = 2,6 \text{ kJ/kg}$ .

**5.30.-masala.** Agar soploring tezlik koeffitsienti  $\varphi = 0,98$ , parraklarning tezlik koeffitsienti  $\Psi = 0,88$ , disk yuzasiga soploring egiluvchanlik burchagi  $\alpha_1 = 16^\circ$ , pog'onaning o'rta cha diametri  $d = 0,9 \text{ m}$ , turbina valining aylanishlar soni  $n = 3800$  ayl/bir daq, parraklar o'rta sidagi aylanma tezlikni bug'ni soplordan oqib chiqishdagi xaqiqiy tezlik nisbati  $i/s_1 = 0,45$  va ishchi parrakkalardan bug'ning chiqish burchagi  $\beta_2 = 24^\circ$  bo'lsa aktiv pog'onadan mutloq tezlik bilan chiqishdagi issiqlik energiyasini yo'qolishini aniqlang.

**Yechish:** Parraklar o'rta sidagi aylanma tezlik (5.4) ifoda bilan aniqlanadi:

$$u = \pi d n / 60 = 3,14 \cdot 0,9 \cdot 3800 / 60 = 179 \text{ m/s.}$$

Bug'ni soplordan oqib chiqishdagi haqiqiy tezlik quyidagicha  $i/s_1 = 0,45$  aniqlanadi:

$$c_1 = u / 0,45 = 179 / 0,45 = 398 \text{ m/s.}$$

Soplodagi energiya yo'qolishi (5.12) ifodadan aniqlanadi:

$$h_c = (1/\varphi^2 - 1) c_1^2 / 2000 = (1/0,98^2 - 1) 399^2 / 2000 = 3,26 \text{ kJ/kg.}$$

Parraklarga bug'ni kirishdagi nisbiy tezlikni (5.5) ifodadan aniqlaymiz:

$$\omega_1 = \sqrt{c_1^2 + u^2 - 2c_1 u \cos \alpha_1} = \sqrt{398^2 + 179^2 - 2 \cdot 298 \cdot 179 \cdot 0,961} = 231 \text{ m/s}$$

Parraklardagi issiqlik energiyasini yo'qolishit (5.13) ifodadan:

$$h_{par} = (1 - \psi^2) \cdot \omega_1^2 / 2000 = (1 - 0,88^2) \cdot 231^2 / 2000 = 6,02 \text{ kJ/kg.}$$

Bug'ni parraklar orasidan chiqishdagi nisbiy tezlik (5.6) ifodadan aniqlanadi:

$$\omega_2 = \psi \omega_1 = 0,86 \cdot 231 = 203,3 \text{ m/s.}$$

Ishchi parraklar kanali orasidan bug'ni chiqishdagi mutloq tezlik (5.8) ifodadan:

$$c_2 = \sqrt{\omega_2^2 + u^2 - 2\omega_2 u \cos \beta_2} = \sqrt{203,3^2 + 179^2 - 2 \cdot 203,3 \cdot 179 \cdot 0,935} = 83 \text{ m/s}$$

Mutloq tezlik bilan chiqishdagi issiqlik energiyasining yo'qolishini (5.15) ifodadan aniqlanadi:

$$h_{chiq} = c_2^2 / 2000 = 83^2 / 2000 = 3,44 \text{ kJ/kg.}$$

**Javob**  $h_c = 3,26 \text{ kJ/kg}; h_{par} = 6,02 \text{ kJ/kg}; h_{chiq} = 3,44 \text{ kJ/kg.}$

**5.31.-masala.** Agar soploga kirishda bug'ni entalpiyasi  $i_0 = 3400 \text{ kJ/kg}$ , bug'ni soplordan chiqishdagi entalpiyasi  $i_1 = 3250 \text{ kJ/kg}$ , soploning tezlik koefitsienti  $\varphi = 0,96$ , parraklarning tezlik koefitsienti  $\Psi = 0,9$ , disk yuzasiga soploning egiluvchanlik burchagi  $\alpha_1 = 15^\circ$ , parraklar o'rtaqidagi aylanma tezlikni bug'ni soplordan oqib chiqishdagi xaqiqiy tezlik nisbati  $i/s_1 = 0,49$ , ishchi parrakkaldardan bug'ning chiqish burchagi  $\beta_2 = 24^\circ$  va pog'onaning reaktivlik

darajasi  $\rho = 0,48$  bo'lsa, soplodagi, parraklardagi va reaktiv pog'onadagi chiquvchi mutloq tezlik bilan issiqlik energiyasini yo'qolishini aniqlang.

**Javob:**  $h_c = 6,1 \text{ kJ/kg}$ ;  $h_{par} = 4,2 \text{ kJ/kg}$ ;  $h_{chq} = 27,6 \text{ kJ/kg}$ .

**5.32.-masala.** Agar pog'onadagi issiqlik tushumi  $h_0 = 160 \text{ kJ/kg}$ , soploning tezlik koefitsienti  $\varphi = 0,96$ , parraklarning tezlik koefitsienti  $\Psi = 0,88$ , disk yuzasiga soploning egiluvchanlik burchagi  $\alpha_1 = 16^\circ$ , parraklar o'rtasidagi aylanma tezlik u = 188 m/s va ishchi parrakkadan bug'ning chiqish burchagi  $\beta_2 = \beta_1 - 1^\circ 20'$  bo'lsa, aktiv pog'onadagi parraklarning nisbiy f.i.k. ini aniqlang.

**Javob:**  $\eta_{o,i \text{ ishchi}} = 0,746$ .

**5.33.-masala.** Agar pog'onadagi inumkin bo'lgan issiqlik tushumi  $h_0 = 180 \text{ kJ/kg}$ , soploning tezlik koefitsienti  $\varphi = 0,98$ , parraklarning tezlik koefitsienti  $\Psi = 0,99$ , disk yuzasiga soploning egiluvchanlik burchagi  $\alpha_1 = 16^\circ$ , parraklar o'rtasidagi aylanma tezlikni bug'ni soplidan oqib chiqishdagi xaqiqiy tezlikgi nisbati  $i/s_1 = 0,6$ , ishchi parrakkadan bug'ning chiqish burchagi  $\beta_2 = 22^\circ$  va pog'onani reaktivlik darajasi  $\rho = 0,48$  bo'lsa, reaktiv pog'onaning parraklaridagi nisbiy f.i.k. ni aniqlang.

**Yechish:** Bug'ni soplidan oqib chiqishdagi haqiqiy tezlikni (5.2) ifodadan aniqlaymiz:

$$c_1 = 44,7 \varphi \sqrt{h_b(1-\rho)} = 44,7 \cdot 0,98 \sqrt{180(1-0,48)} = 424 \text{ m/s.}$$

Soplodagi energiyani (kJ/kg) yo'qolishi (5.12) ifodadan aniqlanadi:

$$h_c = (1/\varphi^2 - 1)c_1^2/2000 = (1/0,98^2 - 1) \cdot 424^2/2000 = 3,7 \text{ kJ/kg.}$$

Parraklar o'rtasidagi aylanma tezlikni  $i/s_1 = 0,6$ , ifodadan aniqlaymiz:

$$u = 0,5 \cdot c_1 = 0,6 \cdot 424 = 254,4 \text{ m/s.}$$

Parraklarga bug'ni kirishdagi nisbiy tezlikni (5.5) ifodadan aniqlaymiz:

$$\omega_1 = \sqrt{c_1^2 + u^2 - 2c_1 u \cos \alpha_1} = \sqrt{424^2 + 254,4^2 - 2 \cdot 424 \cdot 254,4 \cdot 0,97} = 198 \text{ m/s}$$

Parraklar o'rtaqidagi kanaldan bug'ni chiqishdagi nisbiy tezlikni (5.7) ifodadan aniqlaymiz:

$$\omega_2 = 44,7 \psi \sqrt{\rho h_0 + (\omega_1 / 44,7)} = 44,7 \cdot 0,93 \sqrt{0,48 \cdot 180 + (198 / 44,7)^2} = 527 \text{ m/s}$$

Parraklardagi issiqlik energiyasini yo'qolishi (5.14) ifodadan aniqlanadi:

$$h_{\text{par}} = (1/\psi^2 - 1) \omega_2^2 / 2000 = (1/0,93^2 - 1) \cdot 527^2 / 2000 = 21,7 \text{ kJ/kg.}$$

Mutloq tezlik bilan chiqishdagi issiqlik energiyani yo'qolishi (5.15) ifodadan:

$$h_{\text{chiq}} = c_2^2 / 2000 = 306^2 / 2000 = 46,8 \text{ kJ/kg.}$$

Parrakdagi nisbiy f.i.k. (5.18) ifodadan:

$$\eta_{\text{o.i.par}} = (h_0 - h_{\text{c}} - h_{\text{par}} - h_{\text{chiq}}) / h_0 = (180 - 3,7 - 21,7 - 46,8) / 180 = 0,599.$$

**Javob:**  $\eta_{\text{o.i.par}} = 0,599$ .

**5.34.-masala.** Aktiv pog'onada boshlang'ich parametrlari  $p_0 = 3,5 \text{ MPa}$  va  $t_0 = 450^\circ\text{C}$ , bo'lgan bug'ning bosimi  $p_1 = 2 \text{ MPa}$  kengayadi. Agar soploning tezlik koefitsienti  $\varphi = 0,95$ , parraklarning tezlik koefitsienti  $\Psi = 0,9$ , disk yuzasiga soploning egiluvchanlik burchagi  $\alpha_1 = 14^\circ$ . Bug'ning parraklar o'rtaqidagi aylanma tezlikni soplodan oqib chiqishdagi xaqiqiy tezlik nisbati  $i/s_1 = 0,44$  va ishchi

parrakkadan bug'ning chiqish burchagi  $\beta_2 = \beta_1 - 2^\circ$  teng bo'lganda parraklaridagi nisbiy f.i.k. ini aniqlang.

**Javob:**  $\eta_{o,i\text{ par}} = 0,803$ .

**5.35.-masala.** Agar soploning tezlik koeffitsienti  $\varphi = 0,98$ , parraklarning tezlik koeffitsienti  $\Psi = 0,88$ , disk yuzasiga soploning egiluvchanlik burchagi  $\alpha_1 = 18^\circ$  va ishchi parrakdan bug'ning kirish burchagi  $\beta_2 = \beta_1 + 2^\circ$  ma'lum bo'lsa, parraklar o'rtasidagi aylanma tezlikni, bug'ni soplidan oqib chiqishdagi bug'ning haqiqiy tezlik nisbati  $u/s_1$  ga nisbatan 0,46 dan 0,41 gacha pasayishidagi aktiv pog'ona parraklardagi nisbiy f.i.k qanchaga kamayishini aniqlang.

**Yechish:**  $u/s_1 = 0,46$  da ishchi parrakdan bug'ni chiqish burchagini (5.9) ifodadan aniqlaymiz:

$$\operatorname{tg}\beta_1 = \sin\alpha_1 / (\cos\alpha_1 - u/s_1) = 0,309 / (0,951 - 0,46) = 0,1517;$$

$$\beta_1 = 8^\circ 38'.$$

$u/s_1 = 0,46$  da ishchi parrakdan bug'ning chiqishdagi burchak:

$$\beta_2 = \beta_1 - 2^\circ = 8^\circ 38' - 2^\circ = 6^\circ 38'.$$

$u/s_1 = 0,41$  da ishchi parrakdan bug'ni chiqish burchagini (5.9) ifodadan aniqlaymiz:

$$\operatorname{tg}\beta_1 = \sin\alpha_1 / (\cos\alpha_1 - u/s_1) = 0,309 / (0,951 - 0,41) = 0,16717;$$

$$\beta_1 = 9^\circ 29'.$$

$u/s_1 = 0,41$  da ishchi parrakdan bug'ning chiqishdagi burchak:

$$\beta_2 = \beta_1 - 2^\circ = 9^\circ 29' - 2^\circ = 7^\circ 29'.$$

Parrakdagagi nisbiy f.i.k. (5.19) ifodadan aniqlaymiz:

$$u/s_1 = 0,46 \text{ da}$$

$$\begin{aligned}\eta_{o,11} &= 2\varphi^2 (u/s_1) (1 + \psi \cos\beta_2 / \cos\beta_1) (\cos\alpha_1 - u/s_1) = \\ &= 2 \cdot 0,98^2 \cdot 0,46 (1 + 0,88 \cdot 0,9859 / 0,9887) (0,951 - 0,46) = 0,814;\end{aligned}$$

$$u/s_1 = 0,41 \text{ da}$$

$$\begin{aligned}\eta_{o,12} &= 2\varphi^2 (u/s_1) (1 + \psi \cos\beta_2 / \cos\beta_1) (\cos\alpha_1 - u/s_1) = \\ &= 2 \cdot 0,98^2 \cdot 0,41 (1 + 0,88 \cdot 0,9915 / 0,9863) (0,951 - 0,41) = 0,803.\end{aligned}$$

Parrakdagagi nisbiy f.i.k. yo'qolishini (5.19) ifodadan aniqlaymiz:

$$[(\eta_{o,11} - \eta_{o,12}) / \eta_{o,11}] \cdot 100 = [(0,814 - 0,803) / 0,814] \times 100 = 1,35 \text{ %.}$$

**Javob:**  $\eta_{o,i \text{ par}}$  kattaligi 1,35 foizga kamayadi.

**5.36.-masala.** Agar pog'onadagi mumkin bo'lgan issiqlik keskin o'zgarishi  $h_0 = 100 \text{ kJ/kg}$ , bosimi  $p = 1,0 \text{ MPa}$  va harorati  $t = 300^\circ\text{C}$  pog'onanining o'rtacha diametri  $d = 1,1 \text{ m}$ , turbina valining aylanishlar soni  $n = 50 \text{ ayl/s}$  ishchi parraklarning chiqish balandligi  $l_2 = 0,03 \text{ m}$ , bug'ni kirishdagi partsiallik darajasi  $\varepsilon = 0,4$ , koefitsienti  $\lambda = 1,1$ , bug'ning sarfi  $M = 25 \text{ kg/s}$ , bug'ni oqishidagi sarfi  $M_{o, \text{chiq}} = 0,8 \text{ kg/s}$  bo'lsa, aktiv pog'onadagi ishqalanishga, ventilyatsiyaga va bug'ni oqishdagi issiqlik energiyani yo'qolishini aniqlang.

**Javob:**  $h_{\text{ish}, v} = 2,8 \text{ kJ/kg}$ ;  $h_{o, \text{chiq}} = 3,2 \text{ kJ/kg}$ .

**5.37.-masala.** Agar pog'onadagi mumkin bo'lgan issiqlik tushumi  $h_0 = 100 \text{ kJ/kg}$ , soploning tezlik koefitsienti  $\varphi = 0,94$ , parraklarning tezlik koefitsienti  $\Psi = 0,88$ , disk yuzasiga soploning egiluvchanlik burchagi  $\alpha_1 = 18^\circ$ , pog'onanining o'rtacha diametri  $d = 0,95 \text{ m}$ , turbina valining aylanishlar soni  $n = 3600 \text{ ayl/bir daq}$ , ishchi parrakdan bug'ning chiqish burchagi  $\beta_2 = 22^\circ 20'$ , pog'onani reaktivlik

darajasi  $\rho = 0,45$ , bug'ning sarfi  $M = 22 \text{ kg/s}$ , bugni oqishidagi sarfi  $M_{o.chiq} = 0,4 \text{ kg/s}$  bo'lsa, ishqalanishga va ventilyatsiyaga ketgan yo'qolishlarni xisobga olgan xolda, reaktiv pog'onanining nisbiy ichki f.i.k. ni aniqlang.

**Javob:**  $n_{o,i}^n = 0,7$ .

**5.38.-masala.** Agar pog'onadagi mumkin bo'lgan issiqlik tushumi  $h_0 = 90 \text{ kJ/kg}$ , soploning tezlik koefitsienti  $\varphi = 0,96$ , parraklarning tezlik koefitsienti  $\Psi = 0,89$ , disk yuzasiga soploning egiuvchanlik burchagi  $\alpha_1 = 16^\circ$ , pog'onanining o'rtacha diametri  $d = 1,3 \text{ m}$ , valining aylanishlar soni  $n = 3600 \text{ ayl/bir daq}$ , ishchi parrakkadan bug'ning chiqish burchagi  $\beta_2 = 20^\circ$ , parraklar o'rtasidagi aylanma tezlikni bug'ni soplidan oqib chiqishdagi xaqiqiy tezlik nisbati  $i/s_1 = 0,465$ , ishchi parraklarning chiqish balandligi  $l_2 = 0,04 \text{ m}$ , bug'ni kirishdagi partsiallik darajasi  $\varepsilon = 0,5$ , koefitsienti  $\lambda = 1,1$ , bug'ning sarfi  $M = 80 \text{ kg/s}$ , bugni oqishidagi sarfi  $M_{o.chiq} = 1,2 \text{ kg/s}$ , kamcradagi ishchi g'ildirakni aylanishidagi bug'ning parametrlari  $p = 1,2 \text{ MPa}$  va  $t = 330^\circ\text{C}$  bo'lsa, aktiv pog'onanining ichki nisbiy f.i.k. ni aniqlang.

**Yechish:** Parraklar o'rtasidagi aylanma tezlik (5.4) ifoda bilan aniqlaymiz:

$$u = \pi d n / 60 = 3,14 \cdot 1,3 \cdot 3600 / 60 = 245 \text{ m/s.}$$

Bug'ni soplidan oqib chiqishdagi haqiqiy tezlik  $i/s_1 = 0,465$  nisbati orqali quyidagicha aniqlanadi

$$s_1 = u / 0,455 = 245 / 0,465 = 527 \text{ m/s.}$$

Soplodagi issiqlik energiyani ( $\text{kJ/kg}$ ) yo'qolishi (5.12) ifodadan:

$$h_c = (1/\varphi^2 - 1)c_i^2 / 2000 = (1/0,96^2 - 1) \cdot 527^2 / 2000 = 11,8 \text{ kJ/kg.}$$

Parraklarga bug'ni kirishdagi nisbiy tezlikni (5.5) ifodadan aniqlaymiz:

$$\omega_1 = \sqrt{c_1^2 + u^2 - 2c_1 u \cos \alpha_1} = \sqrt{527^2 + 245^2 - 2 \cdot 527 \cdot 245 \cdot 0,961} = 299 \text{ m/s}$$

Parraklardagi issiqlik energiyasini yo‘qolishi (5.13) ifodadan:

$$h_{par} = (1 - \psi^2) \omega_1^2 / 2000 = (1 - 0,89^2) 299^2 / 2000 = 9,3 \text{ kJ/kg.}$$

Ishchi parraklar orasidagi kanaldan chiqayotgan bug’ning nisbiy tezlik quyidagi (5.6) ifodadan aniqlanadi:

$$\omega_2 = \psi \omega_1 = 0,89 \cdot 299 = 266 \text{ m/s.}$$

Ishchi parraklar orasidagi kanaldan chiqayotgan mutloq tezlik quyidagi (5.8) ifodadan aniqlanadi:

$$c_2 = \sqrt{\omega_2^2 + u^2 - 2\omega_1 u \cos \beta_2} = \sqrt{266^2 + 245^2 - 2 \cdot 266 \cdot 245 \cdot 0,9397} = 91 \text{ m/s}$$

Mutloq tezlik bilan chiqishdagi issiqlik energiyani yo‘qolishi (5.15) ifodadan aniqlanadi:

$$h_{chiq} = c_2^2 / 2000 = 91^2 / 2000 = 4,14 \text{ kJ/kg.}$$

Bosimi  $p_0 = 1,2 \text{ MPa}$  va harorati  $t_0 = 330^\circ\text{C}$  bo‘lgan pog’onalar kamerasidagi bug’ning solishtirma xajmi is - diagramma orqali aniqlanadi ;  $v = 0,23 \text{ m}^3/\text{kg.}$

Bug’ orqali aylanayotgan turbina diskining ishqalanishda va ventilyatsiyadagi issiqlik energiyasi yo‘qotilishini (5.16) ifodadan toping:

$$h_{ish,v} = \lambda [1,07 d^2 + 0,61 z (1 - \varepsilon) d l_2^{1/2}] (1/v) (u^3 / 10^6) \times (1/M) = 1,1 [1,07 \cdot 1,3^2 +$$

$$+ 0,61 \cdot 1 \cdot (1-0,5)1,3 \cdot 0,04^{1,5}](1/0,23) \times (245^3/10^6) (1/80) = 1,19 \text{ kJ/kg.}$$

Soplo va parraklarni o'ralgan joyidagi teshiklardan oqib chiqayotgan issiqlik energiyasini yo'qolishini (5.16) ifodadan toping:

$$h_{o,chiq} = M_{o,chiq} \cdot h_0 / M = 1,2 \cdot 90/80 = 1,35 \text{ kDj/kg.}$$

Pog'onalardagi nisbiy ichki f.i.k. ni (5.21) ifoda orqali topamiz:

$$\eta^n_{o,i} = (h_0 - h_s - h_{par} - h_{chiq} - h_{ish,v} - h_{o,chiq})/h_0 = (90 - 11,8 - 9,3 - 4,14 - 1,19 - 1,35)/90 = 0,691.$$

**Javob:**  $\eta^n_{o,i} = 0,691$ .

**5.39.-masala.** Aktiv pog'onadagi nisbiy ichki f.i.k. ni toping, agar pog'onalardagi ko'zda tutilgan issiqlik tushumi  $h_0 = 120 \text{ kJ/kg}$ , soploning tezlik koeffitsienti  $\varphi = 0,96$ , parraklarning tezlik koeffitsienti  $\Psi = 0,89$ , disk yuzasiga soploning egiluvchanlik burchagi  $\alpha_1 = 18^\circ\text{C}$ , parraklar o'rtaсидаги аylanma tezlikni bug'ni soplodan oqib chiqishdagi xaqiqiy tezlikgi nisbati  $i/s_1 = 0,6$ , ishchi parrakkadan bug'ning chiqish burchagi  $\beta_2 = \beta_1 - 2^\circ$ , ishqalanishga va ventilyatsiyaga sarflangan issiqlik energiyasining yo'qolishi  $h_{ish,v} = 1,4 \text{ kJ/kg}$ , bug' sarfi  $M = 60 \text{ kg/s}$ , bugning xarakatlanishidagi sarfi  $M_{o,chiq} = 0,32 \text{ kg/s}$ ,

**Yechish:** Bug'ning ishchi parraklarga kirayotgan burchagini (5.9) ifodadan aniqlaymiz:

$$\begin{aligned} tg\beta_1 &= \sin\alpha_1 / (\cos\alpha_1 - i/s_1) = 0,309 / (0,951 - 0,6) = 0,8803; \\ \beta_1 &= 41^\circ 22'. \end{aligned}$$

Bug'ning ishchi parrakdan chiqishdagi burchagini:

$$\beta_2 = \beta_1 - 2^\circ = 41^\circ 22' - 2^\circ = 39^\circ 22'.$$

Ishqalanish va ventilyatsiyadagi nisbiy issiqlik energiyasining yo‘qolganligi:

$$\zeta_{ish.v} = h_{ish.v} / h_o = 1,4 / 120 = 0,012.$$

Bug’ning xarakatlanishidagi teshiklardagi issiqlik energiyani yo‘qolishi (5.17) ifodadan aniqlaymiz:

$$h_{o.chiq} = M_{o.chiq} \cdot h_0 / M = 0,32 \cdot 120 / 60 = 0,64 \text{ kJ/kg.}$$

Bug’ xarakatlangandagi nisbiy issiqlik energiyasining yo‘qolishi:

$$\zeta_{o.chiq} = h_{o.chiq.v} / h_o = 0,64 / 120 = 0,005.$$

Nisbiy ichki f.i.k. ni (5.22) ifodadan aniqlaymiz:

$$\begin{aligned} \eta^n_{o,i} &= 2\varphi^2 (u/s_1) (1 + \psi \cos\beta_2 / \cos\beta_1) (\cos\alpha_1 - u/s_1) - \zeta_{ish.v} - \zeta_{o.chiq} = \\ &= 2 \cdot 0,96^2 \cdot 0,6 (1 + 0,89 \cdot 0,7731 / 0,7505) \times (0,951 - 0,6) - 0,012 - \\ &\quad 0,005 = 0,73. \end{aligned}$$

**Javob:**  $\eta^n_{o,i} = 0,73$ .

**5.40.-masala.** Reaktiv pog’onadagi nisbiy ichki f.i.k. ni toping. Reaktiv pog’ona  $\rho = 0,5$ , agar soploring tezlik koefitsienti  $\varphi = 0,94$ , disk yuzasiga soploring egiluvchanlik burchagi  $\alpha_1 = 14^\circ$ , parraklar o‘rtasidagi aylanma tezlikni bug’ni soplordan oqib chiqishdagi xaqiqiy tezlik nisbati  $i/s_1 = 0,43$ , ishqalanishga va ventilyatsiyaga sarflangan issiqlik energiyasining yo‘qolishi  $\zeta_{ish.v} = 0,03$  va bug’ni xarakatlangandagi issiqlik energiyasining yo‘qolganligi  $\zeta_{o.chiq} = 0,025$ .

**Javob:**  $\eta^n_{o,i} = 0,776$ .

**5.41.-masala.** Boshlang'ich bosimi  $p_0 = 2,75 \text{ MPa}$  va harorati  $t_0 = 380^{\circ}\text{C}$  aktiv oraliq pog'onadagi bug'  $p_1 = 1,2 \text{ MPa}$  bo'lguncha kengayadi. Pog'onaning ichki nisbiy f.i.k. ni toping. Agar soploring tezlik koefitsienti  $\varphi = 0,98$ , parraklarning tezlik koefitsienti  $\Psi = 0,9$ , disk yuzasiga soploring egiluvchanlik burchagi  $\alpha_1 = 18^{\circ}$ , parraklar o'rtaqidagi aylanma tezlik  $u = 255 \text{ m/s}$ , parrakkadan bug'ning chiqish burchagi  $\beta_2 = 20^{\circ}48'$ , avvalgi pog'ona chiqish tezlikning issiqlik energiyasi  $h_{\text{av},\text{chiq}} = 9,0 \text{ kJ/kg}$ , ishlatilgan energiyaning chiqish tezlik koefitsienti  $\mu = 0,9$ , ishqalanish va ventilyatsiyadagi issiqlik energiyasini yo'qolishi  $h_{\text{ish.v}} = 2,8 \text{ kJ/kg}$  va bug'ni xarakatlanishidagi isiqlik energiyasining yo'qolishi  $h_{\text{o,chiq}} = 2,6 \text{ kJ/kg}$ .


**Yechish:** 5.8.-rasmdan is-diagrammadan bug'ning boshlang'ich entalpiyasi  $i_0 = 3195 \text{ kJ/kg}$  va bug'ning adiabatik kengaygandagi oxirgi energiyasi  $i_1 = 3005 \text{ kJ/kg}$ .

Soplidan oqib chiqayotgan bug'ning xaqiqiy tezlikni (5.2) ifodadan aniqlaymiz:

$$c_1 = 44,7 \varphi \sqrt{(i_0 - i_1) + h_{\text{v}}^{\text{up}}} = 44,7 \cdot 0,98 \sqrt{(3195 - 3005) + 9} = 618 \text{ m/s.}$$

Soplodagi issiqlik energiyasini yo'qolishi (5.12) ifodadan aniqlanadi:

$$h_c = (1/\varphi - 1) \cdot c_1^2 / 2000 = (1/0,98^2 - 1) 618^2 / 2000 = 7,87 \text{ kJ/kg.}$$



5.8. – rasm.

Parrakchalarga kirayotgan bug'ning nisbiy tezlik (5.5) ifodadan aniqlanadi:

$$\omega_i = \sqrt{c_i^2 + u^2 - 2c_i u \cos \alpha_i} = \sqrt{618^2 + 255^2 - 2 \cdot 618 \cdot 255 \cdot 0,951} = 384 \text{ m/s}$$

Parraklardagi issiqlik energiyasini yo'qolishi (5.13) ifodadan aniqlanadi:

$$h_{par} = (1 - \psi^2) \omega_i^2 / 2000 = (1 - 0,9^2) 384^2 / 2000 = 14,0 \text{ kJ/kg.}$$

Ishchi parraklar orasidan bug'ni chiqishdagi nisbiy tezlik (5.6) ifodadan:

$$\omega_2 = \psi \omega_i = 0,9 \cdot 384 = 345,6 \text{ m/s.}$$

Ishchi parraklar kanalidan bug'ni chiqishdagi mutloq tezlik (5.7) ifodadan aniqlanadi:

$$c_2 = \sqrt{\omega_2^2 + u^2 - 2\omega_2 u \cos \beta_2} = \sqrt{345,6^2 + 255^2 - 2 \cdot 345,6 \cdot 255 \cdot 0,9348} = 140 \text{ m/sd}$$

Mutloq tezlik bilan chiqishdagı issiqlik energiyani yo‘qolishi (5.15) ifodadan:

$$h_{\text{chiq}} = c_2^2 / 2000 = 140^2 / 2000 = 9,8 \text{ kJ/kg.}$$

Pog’onadagi nisbiy ichki f.i.k. ni (5.24) ifodadan aniqlaymiz:

$$\eta_{\text{o,i}}^n = [\mu \cdot h_{\text{chiq}}^{\text{av}} + h_0 - (h_s + h_p + h_{\text{chiq}} + h_{\text{ish,v}} + h_{\text{o.chiq}})] / (\mu \cdot h_{\text{chiq}}^{\text{av}} + h_0) = \\ = [0,9 \cdot 9 + 190 - (7,87 + 14 + 9,8 + 2,8 + 2,6)] / (0,9 \cdot 9 + 190) = 0,813.$$

**Javob:**  $\eta_{\text{o,i}}^n = 0,813$ .

### 5.3. Ishchi parraklar va soplolarining o‘lchamlarini aniqlash

Soplolar o‘lchami. Kengayuvchi soplolarining chiqishidagi kesimi yuzasi ( $\text{m}^2$ ) quyidagi ifodadan aniqlanadi:

$$f_1 = Mv_1 / (\mu_1 c_1), \quad (5.25)$$

bunda:  $M$  - soplordan o‘tuvchi bug’ni sarfi, kg/s (kg/ik);

$v_1$  – xisoblanayotgan kesim yuzasidagi bug’ning solishtirma xajmi,  $\text{m}^3/\text{kg}$ ;

$\mu_1$  – soploning sarf koefitsienti,  $\mu_1 = 0,92 - 0,97$ .

Minimal kesim yuzasidagi kengayuvchan soploning yuzasi ( $\text{m}^2$ ):

$$f_{\min} = Mv_{kr} / (\mu_1 c_{kr}), \quad (5.26)$$

bunda:  $c_{kr}$  – (5.1) va (5.2) ifodalarda  $i_1$  ni o‘rniga  $i_{kr}$  ni qo‘yish natijasida aniqlanadigan soplordan bug’ni oqib chiqishidagi kiritik tezlik;

$v_{kr}$  – soploning kesim yuzasida kritik bosimdagi  $p_{kr}$  bug'ning solishtirma xajmi.

Bug'ni soplidan oqib chiqishidagi kritik bosim ( $R_a$ ) quyidagi ifodadan aniqlanadi:

$$r_{kr} = \beta_{kr}/r_0, \quad (5.27)$$

bunda:  $\beta_{kr}$  – bosimlarning kritik nisbati,  $\beta_{kr} = 0,546$  qiziq bug' uchun,  $\beta_{kr} = 0,577$  quruq to‘yingan bug' uchun;

$p_0$  – soplidan avvalgi bug'ning bosimi, Pa.

Kritik rejimgacha torayuvchan soplidan oqib chiqish kesim yuzasi (5.25) ifodadan, kritik rejim uchun (5.26) ifodadan aniqlanadi.

Ishchi parraklarning o‘lchamlari. Ishchi parraklarning chiqishdagi kesim yuzasi ( $m^2$ ) quyidagi ifodadan aniqlanadi:

$$f_2 = Mv_2/(\mu_2 \omega_2), \quad (5.28)$$

bunda  $v_2$  – bug'ning ishchi parrakdan chiqishdagi solishtirma xajmi,  $m^3/kg$ ;

$\mu_2$  – ishchi parrak uchun sarf koeffitsienti,  $\mu_2 = 0,92 - 0,97$ .

Ishchi parrakning chiqishdagi balandligi (m):

$$l_2 = f_2 / (\pi d \sin \beta_2). \quad (5.29)$$

**5.42.-masala.** Aktiv pog'onada o‘ta qizigan bug' boshlang'ich parametrlari  $p_0 = 1,2$  MPa va harorati  $t_0 = 300$  °C bilan bosimi  $p_1 = 0,7$  MPa bo‘lguncha kengayadi. Agar soploning tezlik koeffitsienti  $\varphi = 0,96$ , soplodagi bug'ning sarfi  $M = 2$  kg/s va soploning sarf koeffitsienti  $\mu_1 = 0,95$  bo‘lsa, torayuvchan soploning chiqish yuzasini aniqlang.

**Javob:**  $f_1 = 1,38 \cdot 10^{-3} m^2$ .

**5.43.-masala.** Reaktiv pog'onada o'ta qizigan bug' boshlang'ich parametrlari  $p_0 = 2 \text{ MPa}$  va harorati  $t_0 = 350 \text{ }^{\circ}\text{C}$  bilan bosimi  $p_2 = 1,4 \text{ MPa}$  bo'lguncha kengayadi. Agar soploning tezlik koefitsienti  $\varphi = 0,95$ , soplodan o'tayotgan bug'ning sarfi  $M = 1,2 \text{ kg/ik}$ , soploning sarfiy koefitsienti  $\mu_1 = 0,95$  va pog'onaning reaktivlik darajasi  $\rho = 0,5 \text{ bo'lsa}$ , torayuvchan soploning chiqish yuzasini aniqlang.

**Javob:**  $f_1 = 0,73 \cdot 10^{-3} \text{ m}^2$ .


**5.44.-masala.** Aktiv pog'onada o'ta qizigan bug' boshlang'ich parametrlari  $p_0 = 4,25 \text{ MPa}$  va harorati  $t_0 = 480 \text{ }^{\circ}\text{C}$  bilan bosimi  $p_1 = 1,4 \text{ MPa}$  bo'lguncha kengayadi. Agar soploning tezlik koefitsienti  $\varphi = 0,96$ , soplodagi bug'ning sarfi  $M = 2,4 \text{ kg/ik}$  va soploning sarfiy koefitsienti  $\mu_1 = 0,98 \text{ bo'lsa}$ , torayuvchan soploning chiqish yuzasini aniqlang.

**Yechish:** Soplodan oqib chiqishidagi kritik bosim (5.27) ifodadan:

$$r_{kr} = \beta_{kr} \cdot r_0 = 0,546 \cdot 4,25 = 2,32 \text{ MPa}.$$

$P_1$  bosim  $R_{kr}$  bosimdan kichik bo'lgani uchun, unda soploning chiqish yuzasida kiritik bosim bo'lib qoladi, u xolda soploda kengayish jarayoni  $p_0$  bosimdan  $p_{kr}$  bosimgacha davom etadi.

*is*-diagrammadan (5.9. – rasm) boshlang'ich entalpiya  $i_0 = 3404 \text{ kJ/kg}$  va adiabatik kengayishdan keyingi entalpiya  $i_{kr} = 3217 \text{ kJ/kg}$  ni aniqlaymiz.



5.9. – rasm

Soplodan oqib chiqishdagi bug'ning kritik tezlikni (5.2) ifodadan aniqlaymiz:

$$c_1 = 44,7\varphi \cdot [i_0 - i_{\text{kr}}] = 44,7 \cdot 0,96 \cdot 3404 - 3217 = 587 \text{ m/ik.}$$

Kritik bosimda bug'ning chiqishidagi solishtirma xajimi is - diagrammadan (5.9. – rasm) aniqlanadi:  $v_{\text{kr}} = 0,13 \text{ m}^3/\text{kg}$ .

Torayuvchan soplo chiqishdagi kesimi (5.26) ifodadan aniqlanadi:

$$f_1 = Mv_{\text{kr}} / (\mu_1 s_{\text{kr}}) = 2,4 \cdot 0,13 / (0,98 \cdot 587) = 0,542 \cdot 10^{-3} \text{ m}^2.$$

**Javob:**  $f_1 = 0,542 \cdot 10^{-3} \text{ m}^2$ .

**5.45.-masala.** Aktiv pog'onada bug' boshlang'ich parametrlari  $p_0 = 1,0 \text{ MPa}$  va harorati  $t_0 = 320 \text{ }^{\circ}\text{C}$  bilan bosimi  $p_1 = 0,3 \text{ MPa}$  bo'lguncha kengayadi. Agar soploring tezlik koefitsienti  $\varphi = 0,97$ , soplodagi bug'ning sarfi  $M = 1,2 \text{ kg/ik}$  va

soploning sarf koeffitsienti  $\mu_1 = 0,97$  bo'lsa, kengaygan soploning chiqish va kesim yuzasini aniqlang.

$$\text{Javob: } f_1 = 1,18 \cdot 10^{-3} \text{ m}^2; f_{\min} = 0,98 \cdot 10^{-3} \text{ m}^2.$$

**5.46.-masala.** Reaktiv pog'onada o'ta qizigan bug' boshlang'ich parametrlari  $p_0 = 1,6 \text{ MPa}$  va harorati  $t_0 = 380^\circ\text{C}$  bilan bosimi  $p_2 = 0,4 \text{ MPa}$  bo'lguncha kengayadi. Agar soploning tezlik koeffitsienti  $\varphi = 0,98$ , soplidan o'tayotgan bug'ning sarfi  $M = 2,1 \text{ kg/ik}$  va soploning sarfiy koeffitsienti  $\mu_1 = 0,98$ , pog'onaning reaktivlik darajasi  $\rho = 0,6$  bo'lsa, kengayuvchan soploning chiqish va kesim yuzasini aniqlang.

**Yechish:** Soplidan oqib chiqishidagi kiritik bosim (5.14) ifodadan aniqlanadi:

$$r_{kr} = \beta_{kr} \cdot r_0 = 0,546 \cdot 1,6 = 0,87 \text{ MPa}.$$

i-s diagrammadan (5.10. – rasm) bug'ning entalpiyasini aniqlaymiz  $i_0 = 3215 \text{ kJ/kg}$ ,  $i_{kr} = 3065 \text{ kJ/kg}$ ,  $i_1 = 2864 \text{ kJ/kg}$  va bug'ning solishtirma xajmini  $v_{kr} = 0,287 \text{ m}^3/\text{kg}$ ;  $v_1 = 0,562 \text{ m}^3/\text{kg}$  ni aniqlaymiz.

Soplidan oqib chiqishdagi bug'ning xaqiqiy tezlikni (5.2) ifodadan aniqlaymiz:


$$c_i = 44,7\varphi \cdot (i_0 - i_1)(1 - \rho) = 44,7 \cdot 0,98 \cdot (3215 - 2864)(1 - 0,6) = 519 \text{ J/kg}$$

Kengayuvchi soploning chiqishdagi kesimi (5.23) ifodadan aniqlanadi:

$$f_1 = Mv_1 / (\mu_1 c_i) = 2,1 \cdot 0,562 / (0,98 \cdot 519) = 2,32 \cdot 10^{-3} \text{ m}^2$$

Bug'ning soplidan oqib chiqishdagi kritik tezlik:

$$c_1 = 44,7 \varphi \cdot (i_o - i_{sp}) (1 - \rho) = 44,7 \cdot 0,98 \cdot (3215 - 3065) (1 - 0,6) = 339 \text{ m/ik.}$$



5.10. – rasm.

Kengayuvchan soploning minimal kesim yuzasi (5.26) ifodadan:

$$f_{\min} = M v_{kr} / (\mu_1 s_{kr}) = 2,1 \cdot 0,287 / (0,98 \cdot 339) = 1,81 \cdot 10^{-3} \text{ m}^2.$$

**Javob:**  $f_l = 2,32 \cdot 10^{-3} \text{ m}^2; f_{\min} = 1,81 \cdot 10^{-3} \text{ m}^2.$


**5.47.–masala.** Agar bug’ning pog’onadan avvalgi parametrlari  $p_0 = 2 \text{ MPa}$  va harorati  $t_0 = 350 \text{ }^\circ\text{C}$ , pog’onadan keyingi bug’ning bosimi  $p_2 = 1,5 \text{ MPa}$ , soploning tezlik koefitsienti  $\varphi = 0,95$ , parraklarning tezlik koefitsienti  $\Psi = 0,87$ , disk yuzasiga soploning egiluvchanlik burchagi  $\alpha_1 = 13^\circ$ , parraklar o’tasidagi aylanma tezlikni bug’ni soplodan oqib chiqishdagi xaqiqiy tezlikgi nisbati  $u/c_1 = 0,45$ , ishchi parrakdan bug’ning chiqish burchagi  $\beta_2 = 22^\circ$ , bug’ni ishchi parrakdan chiqishdagi solishtirma xajmi  $v_2 = 0,143 \text{ m}^3/\text{kg}$ , pog’onaning o’ttacha diametri  $d = 1,0 \text{ m}$ ,

bug'ning sarfi  $M = 30 \text{ kg/ik}$ , ishchi parrak uchun sarf koeffitsienti  $\mu_2 = 0,95$  va bug'ni chiqish partsialligi  $\varepsilon = 0,4$  bulsa, aktiv pog'onaning chiqish ko'ndalang kesimi va chiqishdag'i ishchi parrakning balandligini aniqlang.

**Javob:**  $f_2 = 2,428 \cdot 10^{-2} \text{ m}^2$ ;  $l_2 = 5,11 \cdot 10^{-2} \text{ m}$ .

**5.48.-masal.** Agar bug'ning pog'onadan avvalgi parametrlari  $p_0 = 2 \text{ MPa}$  va harorati  $t_0 = 410^{\circ}\text{C}$ , pog'onadan keyingi bug'ning bosimi  $p_2 = 1,5 \text{ MPa}$ , soploring tezlik koeffitsienti  $\varphi = 0,96$ , parraklarning tezlik koeffitsienti  $\Psi = 0,88$ , disk yuzasiga soploring egiluvchanlik burchagi  $\alpha_1 = 18^{\circ}$ , parraklar o'rtasidagi aylanma tezlikni bug'ni soplordan oqib chiqishdag'i xaqiqiy tezlik nisbati  $w/c_1 = 0,6$ , ishchi parrakkladan bug'ning chiqish burchagi  $\beta_2 = 20^{\circ}$ , pog'onaning o'rtacha diametri  $d = 0,96 \text{ m}$ , reaktivlik darajasi  $\rho = 0,6$ , bug'ning sarfi  $M = 28 \text{ kg/ik}$ , ishchi parrak uchun sarf koeffitsienti  $\mu_2 = 0,98$  va bug'ni chiqish portsialligi  $\varepsilon = 0,5$  bo'lsa, ishchi parrakning chiqishdag'i kesimining yo'qolishi va reaktiv pog'onadagi parrakning chiquvchi balandligini aniqlang.

**Yechish:** i-s diagramma (5.11. – rasm) dan pog'onadan avvalgi bug'ning entalpiyasi  $i_0 = 3268 \text{ kJ/kg}$  aniqlaymiz, so'ngra bug'ni adiabatik kengayishidan keyingi entalpiyasi  $i_2 = 3125 \text{ kJ/kg}$  ni aniqlaymiz.



5.11. – rasm.

(5.2) ifoda yordamida bug'ni soplidan oqib chiqishdagi xaqiqiy tezlikni aniqlaymiz:

$$c_1 = 44,7 \varphi \sqrt{(i_b - i_{sp})(1 - \rho)} = \\ 44,7 \cdot 0,96 \sqrt{(3268 - 3125)(1 - 0,6)} = 324 \text{ m/ik.}$$

Soplidan issiqlik energiyani yo'qolishini (5.12) ifoda yordamida aniqlaymiz:

$$h_c = (1/\varphi^2 - 1) c_1^2 / 2000 = (1/0,96^2 - 1) 324^2 / 2000 = 4,46 \text{ kJ/kg.}$$

Parraklar o'rtaсидаги аylanma tezlikni  $u/c_1 = 0,6$  dan aniqlaymiz:

$$u = 0,6 \cdot c_1 = 0,6 \cdot 324 = 194 \text{ m/ik.}$$

(5.5) ifodadan bug'ni parrakga kirishdagi nisbiy tezlikni aniqlaymiz:

$$\omega_1 = \sqrt{c_1^2 + u^2 - 2c_1 u \cos \alpha} = \sqrt{324^2 + 194^2 - 2 \cdot 324 \cdot 194 \cdot 0,951} = 152 \text{ m/ik}$$

Ishchi parraklar orasidan bug'ni chiqishdagi nisbiy tezlik (5.7) ifodadan:

$$\omega_2 = 44,7 \varphi \sqrt{\rho h_n + (\omega_1 / 44,7)^2} = 44,7 \sqrt{324^2 + 194^2 - 2 \cdot 324 \cdot 194 \cdot 0,951} = 152 \text{ m/ik}$$

Bug'ning parraklardan chiqayotgan  $v_2 = 0,242 \text{ m}^3/\text{kg}$  solishtirma xajmini aniqlab, is-diagrammada jarayonni tuzamiz ( 5.11 rasm)/

Ishchi parraklarning chiqishdagi kcsim yuzasi quyidagi (5.28) ifodadan aniqlanadi:

$$f_2 = M \mu_2 / (\mu_2 \omega_2) = 28 \cdot 0,242 / (0,98 \cdot 474) = 1,459 \times 10^{-2} \text{ m}^2.$$

Ishchi parrakning chiqishdagi balandligi (5.29) ifodadan aniqlanadi:

$$l_2 = f_2 / (\pi d \cdot \sin \beta_2) = 1,459 \cdot 10^{-2} / (3,14 \cdot 0,96 \cdot 0,5 \times 0,342) = 2,83 \cdot 10^{-2} \text{ m.}$$

**Javob:**  $f_2 = 1,459 \cdot 10^{-2} \text{ m}^2$ ;  $l_2 = 2,83 \cdot 10^{-2} \text{ m.}$

#### 5.4. Foydali ish koeffitsienti, quvvati va bug'ni turbinadagi sarfi

Turbinaning foydali ish koeffitsienti. Turbinadagi issiqlik energiyani yo'qolishini nisbiy ichki f.i.k. bilan baxolaydi. Nisbiy ichki f.i.k. ishlatilgan issiqlik tushumini ( $H_i$ ) bo'lishi mumkin bo'lgan issiqlik tushumiga ( $H_0$ ) nisbati bilan aniqlanadi.

$$\eta_{bi} = H_i / H_0 = (i_0 - i_k) / (i_0 - i_{k,a}), \quad (5.30)$$

bunda:  $i_0$  – bug'ning boshlang'ich parametrlaridagi entalpiyasi, kJ/kg;

$i_{k,a}$  – boshlang'ich xolatdan to oxirgi xolatgacha bug'ning adiabatik kengayishidagi entalpiyasi, kJ/kg;

$i_k$  – bug'ning oxirgi parametrlaridagi entalpiyasi, kJ/kg.

Bug' turbinalarining nisbiy ichki f.i.k.  $0,7 - 0,88$  oralig'ida bo'ladi.

Podshipniklarda ishqalanishdagi va qo'shimcha mexanizmlarni ishga tushirishdagi issiqliknini yo'qolishi mexanik f.i.k.  $\eta_m$  bilan baxolanadi:

$$\eta_m = N_e / N_i. \quad (5.31)$$

bunda:  $N_{ef}$  – effektiv quvvati, kW;

$N_i$  – indikator (ichki) quvvati, kW;

Mexanik f.i.k.  $\eta_m = 0,97 - 0,99$  oraliqda bo'ladi.

Turbina ichidagi issiqlik yo'qolishi va mexanik yo'qolishlar nisbiy effektiv f.i.k.  $\eta_{o.e}$  bilan baxolanadi, u turbinaning ichki nisbiy f.i.k.  $\eta_{oi}$  bilan mexanik f.i.k.  $\eta_m$  ko'paytmasiga teng, ya'ni qiymati  $\eta_{o.e}$  turbinalarning quvvatiga qarab 0.68 – 0.87 oraliq'ida buladi.

$$\eta_{o.e} = \eta_{oi} \cdot \eta_m, \quad (5.32)$$

Agar bug' turbinasi o'z navbatida elektr generatorga ulangan bo'lsa, u xolda elektrik quvvat effektiv quvvatdan kichik bo'ladi, bu generatordagi yo'qolishlarni xisobga olinganligi tufayli, generatorning f.i.k.  $\eta_g$  bilan baxolanadi.

Generatorning f.i.k.  $\eta_g$  elektrik quvvatni  $N_e$  effektiv quvvatga  $N_{ef}$  nisbati aniqlanadi, ya'ni

$$\eta_g = N_e / N_{ef}. \quad (5.33)$$

Bu f.i.k.  $\eta_g = 0.96 – 0.99$  oraliqda bo'ladi.

Turbogeneratorning nisbiy elektrik f.i.k.  $\eta_{o.e}$ :

$$\eta_{o.e} = \eta_{o.e} \cdot \eta_g = \eta_{oi} \cdot \eta_m \cdot \eta_g. \quad (5.34)$$

Turbinaning issiqlik qaytarish koeffitsienti. Ushbu koeffitsient qisman issiqlik yo'qolshlar xisobiga mumkin bo'lgan issiqlik o'zgarishini ortishini xarakterlaydi va quyidagi ifodadan aniqlanadi:

$$\alpha = (\Sigma h_0 / H_0) - 1. \quad (5.35)$$

bunda:  $\Sigma h_0$  – turbinaning xamma pog'onalaridagi mumkin bo'lgan issiqlik o'zgarishini, kJ/kg.

Alohidagi roq'onalarning nisbiy ichki f.i.k. i teng bo'lganda ushbu koeffitsient quyidagi ifoda dan aniqlanadi:

$$\alpha = (\eta_{oi} / \eta_{oi}^{er}) - 1, \quad (5.36)$$

Turbinadan issiqlikni qaytish koeffitsiyenti pog'onalar soniga qarab quyidagi oraliqda aniqlanadi:[0,04 ...0,06 ].

Turbinaning xarakteristik koeffitsienti  $Y [kg \cdot m^2 / (kJ \cdot ik^2)]$  ni, xuddi pog'onalar nisbatlari  $u/c_1$  orqali aniqlanishi mumkin, bu nisbat koeffitsiyenti turbinaning umumiy tejamkorligini xarakterlaydi va quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$Y = \Sigma u^2 / [(1 + \alpha) \cdot N_0] = z u_{out}^2 / [(1 + \alpha) \cdot H_0], \quad (5.37)$$

bunda:  $z$ - turbina pog'onalarining soni;

$u_{out}$  - parrak o'rtasidagi aylanma tezlik. m/s.

Turbinaning quvvati. Turbinaning effektiv quvvati deb  $N_e$  (kVt), turbina validan yoki tutashtiruvchi muftadan olinadigan quvvatga aytildi:

$$N_{ef} = D \cdot N_0 \cdot \eta_{ee}. \quad (5.38)$$

bunda:  $D$  - bug'ning bir sekundlik sarfi, kg/ik.

Effektiv quvvati  $N_e$  ichki (indikator) quvvati  $N_i$  mexanik yo'qolishlar  $N_m$  quvvatini ayirmasiga teng bo'ladi, ya'ni:

$$N_{ef} = N_i - N_m. \quad (5.39)$$

Ichki (indikator) quvvat  $N_i$  (5.31), elektrik quvvat  $N_e$  (5.33) ifodadan aniqlanadi.

Bug'ning turbinadagi sarfi. Bug' turbinasining iqtisodiyligini xam f.i.k. va xam bug'ning solishtirma sarfi bilan baholanadi.

Bug'ning solishtirma effektiv sarfi  $d_{ef}$  (kg/kVt:soat), bug'ning sekundlik sarfini D effektiv quvvatga  $N_{ef}$  nisbatli ifodalaydi:

$$d_{ef} = D/N_{ef} = 3600 / (\eta_{o-c} N_0). \quad (5.40)$$

Ushbu sarf yuqori quvvatli kondensatsion turbinalarda to'liq yuklamada 3 – 4 kg/kVt:s ni tashkil etadi.

Turbinadan bug'ni olinadigan xolatdag'i (otbor) bug'ning sarfi quyidagi ifodadan aniqlanadi:

$$D = N_{ef} [(i_0 - i_k) \eta_m \eta_g] + D_p (i_0 - i_k) / (i_0 - i_k), \quad (5.41)$$

bunda:  $D_{bug' \text{ ol. ket.}}$  – bug'ni (otbor) olinishi, kg/s;

$i_0$  – boshlang'ich parametrlardagi bug'ning entalpiyasi, kJ/kg;

$i_{bug' \text{ ol. ket.}}$  – olib ketilayotgan bug'ning entalpiyasi, kJ/kg;

$i_k$  – kondensatordagi entalpiyasi, kJ/kg.

Olib ketilayotgan bug'ning entalpiyasi:

$$i_{bug' \text{ ol. ket.}} = i_0 - (i_0 - i_{p.a}) \eta'_{oi}. \quad (5.42)$$

bunda:  $i_{p.a}$  – bug'ni boshlang'ich xolatidan, to bug' olib ketishgacha bo'lgan bosimigacha adiabatik kengayishidagi entalpiyasi, kJ/kg;

$\eta'_{oi}$  – yuqori bosimli qismidagi nisbiy ichki f.i.k. bug'ni olib ketgunga qadar Kondensatordagi entalpiya:

$$i_k = i_{bug' \text{ ol. ket.}} - (i_{bug' \text{ ol. ket.}} - i_{k.a}) \eta''_{oi}, \quad (5.43)$$

bunda:  $i_{k,a}$  – bug'ning entalpiyasi bug'ning adiabatik kengayishining boshlang'ich holatidan oxirgi bosimga qadar olib ketilayotganga qadar entalpiyasi,  $\text{kJ/kg}$ ;

$\eta''_{oi}$  – olib ketilgan bug'dan keyingi qismidagi ichki nisbiy f.i.k.

O'zgaruvchan rejimdagi turbina pog'onalaridagi bug'ning sarfi va bosimi. Turbinadagi bug'ning sarfini o'zgarishi bosimni taqsimlanishini va pog'onadagi issiqlik tushumini keltirib chiqaradi.

Turbina pog'onasida bug'ning sarfi va bosimi orasidagi bog'lanish, bug'ning soplodagi tezlik kritik tezlikdan kichik xolatida quyidagi ifoda bilan aniqlanadi:

$$D/D_0 = \sqrt{P_{01}^2 - P_{02}^2 / (P_0^2 - P_2^2)}, \quad (5.44)$$

bunda:  $D_0$  va  $D$  – ko'rilib turbinadigan xisoblanadigan rejimlarda turbinadagi bug'ning sarfi,  $\text{kg/s}$ ;

$p_0$  va  $p_{01}$  – soplidan avvalgi birinchi yoki istalgan pog'onadagi bug'ning bosimi,  $\text{Pa}$ ;

$p_2$  va  $p_{02}$  – ishchi parraklardan keyingi oxirgi yoki istalgan pog'onadagi bug'ning bosimi,  $\text{Pa}$ .

Bug'ning sarfiga bog'liq bo'lган kondensatsion turbinalarning pog'onalaridagi bosimini o'zgarishi:

$$r_{01} = r_0 D/D_0. \quad (5.45)$$

Bug'ning sarfiga bog'liq bo'lган faqat ma'lum atmosferaga ega bo'lган bug'ni tayyorlab beruvchi turbina pog'onalaridagi bosimni o'zgarishi:

$$p_{01} = \sqrt{(D/D_0)^2 (P_0^2 - P_2^2) + P_2^2}. \quad (5.46)$$

**5.49.-masala.** Agar bug'ning turbinadan avvalgi parametrlari  $p_0 = 3,4$  MPa va harorati  $t_0 = 440$  °C turbinadan keyingi parametrlari  $p_2 = 0,4$  MPa,  $t_2 = 220$  °C va turbinaning mexanik f.i.k. i  $\eta_m = 0,98$  bo'lsa, turbinaning ichki effektiv nisbiy f.i.k. ni aniqlang.

**Javob:**  $\eta_{oi} = 0,77$ ;  $\eta_{o.e} = 0,75$ .

**5.50.-masala .** Agar bug'ning turbinadan avvalgi parametrlari  $p_0 = 4$  MPa va harorati  $t_0 = 390$  °C turbinadan keyingi parametrlari  $p_2 = 1$  MPa,  $t_2 = 240$  °C, turbinaning mexanik f.i.k. va  $\eta_m = 0,97$  df elektr generatorining f.i.k. i  $\eta_e = 0,95$  bo'lsa, turbogeneratorning mexanik f.i.k. ni aniqlang.

**Javob:**  $\eta_{o.e} = 0,71$ .

**5.51.-masala.** Turbinani ishlatishda bug'ning turbinadan avvalgi parametrlari  $p_0 = 3,5$  MPa va harorati  $t_0 = 400$  °C turbinadan keyingi parametrlari  $p_2 = 1,2$  MPa va  $t_2 = 290$  °C bo'lgan parametrlari o'lchandi. Agar turbina bir xil 0,73 ga teng bo'lgan nisbiy ichki f.i.k. iga ega bo'lsa, turbina issiqlik qaytarish koefitsientini aniqlang.

**Javob:**  $\alpha = 0,057$ .

**5.52.-masala.** Boshlang'ich parametrlari  $p_0 = 9$  MPa va harorati  $t_0 = 500$  °C bo'lgan turbina va  $p_2 = 1,5$  MPa, ega bo'lgan bug' ishlab beruvchi turbinaning qaytarish koefitsientini aniqlang, agar rostlovchi pog'onaning ishlatilgan issiqlik tushumi  $h'_1 = 102$  kJ/kg rostlovchi pog'onaning nisbiy ichki f.i.k.  $\eta_{oi,pog'} = 0,68$  ga teng bo'lsa, issiqlik qaytarish koefitsientini aniqlang. Turbina oltita pog'onaga ega bo'lib, ularning mumkin bo'lgan issiqlik tushumi bir xil  $h_0 = 62$  kJ/kg ga teng.

**Javob:**  $\alpha = 0,053$ .

**5.53.- masala.** Boshlang'ich parametrlari  $p_0 = 9$  MPa, harorati  $t_0 = 500$  °C va kondensatordagи  $p_k = 4 \cdot 10^3$  Pa, bo'lgan kondensatsion turbina berilgan. Agar issiqlik qaytarish koefitsientini  $\alpha = 0,05$ , parraklar o'rta sidagi aylanma tezlik  $u_{o,tt} = 220$  m/s bo'lsa, turbinaning xarakterlovchi koefitsientini aniqlang. Turbina o'nta pog'onaga ega.

**Javob:**  $Y = 334 \text{ kg}\cdot\text{m}^2/\text{kJ}\cdot\text{s}$ .

**5.54.-masala.** Turbina boshlang'ich parametrlari  $p_0 = 4 \text{ MPa}$ , harorati  $t_0 = 440^\circ\text{C}$  va kondensatordagi bosim  $p_k = 4 \cdot 10^3 \text{ Pa}$ , ga ega bo'lgan parametrlar bilan ishlaydi. Agar bug'ning sarfi  $D = 5,2 \text{ kg/s}$  va turbinaning nisbiy ichki f.i.k. i  $\eta_{oe} = 0,71$  bo'lsa, turbinaning effektiv quvvatini aniqlang.

**Javob:**  $N_e = 4560 \text{ kVt.}$

**5.55.-masala.** Turbina boshlang'ich parametrlari  $p_0 = 8 \text{ MPa}$ , harorati  $t_0 = 480^\circ\text{C}$  va kondensatordagi bosimi  $p_k = 3,5 \cdot 10^3 \text{ Pa}$ , bo'lgan parametrlar bilan ishlaydi. Agar bug'ning sarfi  $D = 5,4 \text{ kg/s}$  va turbinaning ichki effektiv f.i.k. i  $\eta_{oe} = 0,73$  va turbinaning mexanik f.i.k. i  $\eta_m = 0,97$  bo'lsa, turbinaning ichki (indikator) quvvatini aniqlang.

**Javob:**  $N_i = 5527 \text{ kVt}, N_m = 166 \text{ kVt.}$

